

**OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLIGI**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**PSIXOLOGIYA O`QITISH
METODIKASI**



To'zuvchi: k.o`qituvchi Sharafutdinova X.G`.

TERMIZ-2008

Ushbu ma'ro'za matni Psixologiya kafedrasining 200__yil _____
kunidagi 1-yig`ilish qarori bilan tasdiqlangan.

Taqrizchilar: **dots. B.Sodiqov**

pfn.T.Jo`raev

KIRISH

Respublikamizda yo'z berayotgan tub o`zgarishlar psixologik bilimlardan mutaxassislar tayyorlashda unumli foydalanishni taqozo etmoqda. Davlat tomonidan ishlab chiqarilgan "Ta'lim to`g`risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" singari hujjatlarni amaliyatga tatbiq etish uchun bo`lg`usi mutaxassislarni davr talabiga binoan tayyorlash muammosini kun tartibiga kiritmoqda. Xuddi shu bois psixolog kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun mutaxassislarni psixologiya o`qitish metodikasi bo`yicha bilimlar bilan qurollantirish ijtimoiy zarurat bo`lib hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlab o`tish joizki, fanlarni o`qitish metodikasi murakkab o`quv predmetlari qatoriga kirib, keng ko`lamdagagi ma'lumot umumlashmasini hamda sintetik aqliy faoliyat majmuasini o`zida mujassamlashtiradi. Hozirgi davrdagi psixologiya fanida yo'z berayotgan metodologik o`zgarishlar, dialektikani cheklanganlik xususiyati, neosferaviy aloqalarni aks ettirish jarayoniga ta'siri, betartib harakatlarning borliqdagi roli masalalari psixologiya o`qitish metodikasi predmetini qaytadan tahlil qilishni ta'lab qiladi. Xuddi shu sababdan ob'ekt-sub'ekt, sub'ekt-sub'ekt munosabatlarining psixologik mexanizmlarini atroflicha ochib berishni, shuningdek, ta'sirlanishning o`ziga xos xususiyatlarini yoritishni, aniq, ishonchli dalillar keltirishni muayyan darajaga ko`tarishi lozim.

Psixologiya o`qitish metodikasi sohasi o`z ichiga fanning metodologik muammolari, masalalari, uning ilmiy-uslubiy jahbalar, tarmoqlarining o`ziga xos xususiyatlari, mavzu mazmunini o`zatishning ikkiyoqlama xislatga ega ekanligi, kasbiy- amaliy ko`nikma, malaka tarkib toptirishning imkoniyati, to`g`ri va teskari aloqaning samaradorligini oshirish yo`llari, hamkorlik faoliyatidagi yaqinlik va distantsianing fenomenologiya jahbalarini qamrab oladi.

Psixologiya o`qitish metodikasi barcha fan tarmoqlari yo'zasidan ma'lumotlarni o`zatish va shaxslararo munosabat o`rnatishning muhim vositalari, usullari, malakalar bilan bo`lg`usi psixologlarni qurollantirish funktsiyasini o`ziga oladi. Pedagogik mahorat, innovatsiya, vaziyat, sharoit, muammo xususiyatlarini shakllantirish psixologiya o`qitish metodikasi predmetiga kiradi.

1 – mavzu: PSIXOLOGIYA O`QITISH METODIKASI KURSINING MAQSAD VA VAZIFALARI

R E J A:

1. Psixologik bilimlarga extiyojning kuchayishi – davr talabi.
2. Psixologiya ukitish metodikasi kursini tashkil etishning maqsad va vazifalari.
3. Bo`lg`usi pedagoglarning psixologik bilimlarini oshirishning axamiyati.

Tayanch tushunchalar:

Etnopsixologik bilimlar, psixologiya ukitishni takomillashtirish, psixologik bilimlarga extiyojning kuchayishi, yangi davr va psixologiya, psixologiya printsiplari.

Keyingi yillarda o'qituvchilarni psixologik bilimlar bilan kurollantirish masalasiga aloxida e'tibor berilmokda. Hozirgi sharoitda kelajak avlodning etuk, barkamol inson kilib tarbiyalashda o'qituvchilarning urni benixoyat oshgan. Shuning uchun bulajak o'qituvchidan oliv ukuv yutida o'z mutaxassisliklarini chukur egallahdan tashkari O'quvchilar psixikasidagi yosh va individual xususiyatlarni farklay olishga, bola tarakkiyoti jarayonini ko'zatishdan tugri psixologik-pedagogik xulosalar chiqara bilishga urganish talab etilmokda. Chunki bu – ta'lif va tarbiya sirlarini mukammal egallaydigan o'qituvchilar tayyorlashning muxim sharti xisoblanadi.

Agar pedagog insonni xar tomonlama etuk kilib tarbiyalamokchi bulsa, ya'ni komil insonni voyaga etkazish uchun uni, xar tomonlama urganishi kerak. Psixologiyaning nazariy muammolarini chukur urganmay turib, mazkur fandan xech bulmaganda sodda va bajarilishi oson bo'lgan amaliy mashgulotlar o'tkazish kunikma va malakalarini egallamay turib, O'quvchilarning psixik xususiyatlarini bilishga erishib bulmaydi, albatta.

Kuxna va xamisha navkiron mamlakatimiz uchun ijtimoiy tarakkiyot psixologik nuktai nazardan idrok kilinsa, mantikiy taxlil etilsa, xalkimizning etnopsixologik bilimlardan ta'lif va tarbiya jarayonida foydalanganligi, xarbiy yurishlarda jangchilarga psixologik ta'sir o'tkazganligi, ularda ishonch va e'tikod xissi uygotganligi, muomalaning verbal va noverbal kurinishlarini amaliyotda kullanganligi, Urta asrlarning Forobi, Beruniy, Xorazmiy singari zabardast olimlarining ijodiy maxsullaridan tortib to XX asrning 30-yillari oraligida ilmiy tadqiqotlar kilinganligi bunga isbot talab kilinmaydigan xakikatdir.

O'zbekistonda oliy maktablarda psixologiya ukuv fani sifatida 1928 yildan ukitib kelinmokda. (Xuddi shu davrda L.S.Vigotskiy Urta Osiyoda, O'zbekistonda ommaviy ma'r'o'zalar ukiganligi mazkur jaayonni tezlashtirgan asosiy omil bo'lganligiga xech shak-shubxa yuk»).

Psixologiya fanining ijtimoiy xayotda nufo'zi xar soniya sayin ortib bormokda. Shu tufayli pedagogika institutlari va bilim yurtlarida uni ukitish yulga kuyila boshlandi. Mazkur soxa buyicha yukori malakali mutaxassislar tayyorlash maqsadida Urta Osiyo Davlat Universitetida 1938 yilda (Hozir Milliy Universitet) logika va psixologiya bulimi ochildi. 50-yillarning 2-yarmidan boshlab pedagogika institutlarida va bilim yurtlarida psixologiya bulimlari ochildi. Ayniksa qisqa muddatli 15 va 9 oylik ommaviy psixologlar tayyorlash kurslarining ommaviylashuvi psixolog-mutaxassislarga extiyojning kuchayganligini bildiradi.

Hozirgi davrda respublikamizning barcha oliy maktablari va ukuv yurtlarida, xattoki maktablarida psixologik bilimlar aloxida e'tibor bilan ukitilmokda. (shaxrimizning 23-maktabidagi bank sinfida xam psixologiya fani ukitiladi).

Mamlakatimizda oliy ta'lif kup boshqichli tizimga (bakalavriat, magistratura, aspirantura, doktorantura) utish munosabati bilan psixologiya fanini ukitishning o'ziga xos tashkil etishni takozo etmokda, demak, talabalarga bu soxa buyicha bilim berish ularda kasbiy kunikma va malakalarni shakllantirishni takomillashtirish uchun kuyidagi yirik yunalishlarda ijodiy psixologik-pedagogik izlanishlarni amalga oshirish lozim.

1. Psixologiya fanining metodologik muammolari va ularning talqini.

2. Psixologiyaning nazariy materiallari va ularning taxlili.
3. Psixologiya ukitishda etnopsixologik mexanizmlardan foydalanish.
4. Uning ommaviy talqini, tadbikiy jabxalarini mukammallashtirish:
 - a) amaliyat, praktikum, laboratoriya mashgulotlari sifat darajasini kutarish.
 - b) diagnostik, prognostik metodikalar xamda testlardan foydalanish.
 - v) individual va ijtimoiy treninglarni ommaviylashtirish.
5. Ukitishning maxsuldor, faol va innovatsion metodlarini ta'lim tizimiga yoyish.

6. Psixologiya ukitishda gumanizatsiya – assotsianizm, psixoanaliz, kognitivizm, geshtaltpsixologiya, empirizm, gumanistik psixologiya va boshka yunalishlarni ilmiy metodologik, ilmiy nazariy va amaliy jixatlardan nukson kidirmasdan, balki ularning eng okilona, tarakkiyparvar tomonlarini amaliyotga tadbik etish tavsiyanomasini ishlab chiqish zarur.

Jaxon psixologiyasida yaratilgan metodlar, metodikalar, testlar, anketalar, zamonaviy apparatlar, laboratoriya mashgulotlari o'tkazish instruktsiyasi, trening, kompyuter dasturlari, praktikum, psixologik kabinetlardan foydalanish uslubi va kullanmalarni maxalliy sharoitga moslashtirish va uni sinab kurishni keng yulga kuyish orkali.

Insonning muayyan xususiyatlarini to'la ochish imkoniyatiga erishish. Psixologiyaning predmeti va ob'ekti mavxum shaxs, xodisa, xulk-atvor, faoliyat va muammoga karatilmasligi balki real inson, ma'lum yosh, anik jins xususiyatlari yo'zasidan ma'lumot berishga yunaltirilganligi ayni muddaodir. Ana shu jarayondagina tabiatga va jamiyatga munosabat shaxs bilan favkulotdagi vaziyat bilan o'zviy boglab urganish imkoniyatini yaratadi. Nazariy muammoni amaliy turmush bilan alokasini okilona tushuntirish va yakkol namuna keltirish orkali ularga sharx berish talqinini jonlantiradi, talabani insoniy fazilat sifat va xislatlardan andoza olishga etaklaydi.

Psixologiya printsiplari mavzuni ukitishda va uning determinatorlari ong va faoliyat birligida o'zviylik, uygunlashuv o'zaro aloka etuvchanlik xususiyatlari tugrisida tarakkiyotning psixologik tabiatni, unda ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlar xamda omillar ularning boshqichlari usishi (biologik) rivojlanish (psixik), kamolot, tarakkiyot yo'zasidan dolzarb yakkol muammolar moxiyati bilan boglab axborot berish fanning tadbikiyligini kuchaytirishga xizmat kiladi. Ong va uning psixologik tavsifi tugrisida ma'lumot berilayotganda inson ongi mavjudot deyish bilan cheklanmasdan, balki u ongsizlik ongostlilik va onglilik xolatlarini munosabatlari, funktsiyalari o'zgarishi ularning o'zaro o'zluksiz ravishda urin almashtirib turishini ta'minlashni ta'kidlab utish muammolaridan ayrim chigalliklarga yordam beradi.

Zamonaviy kadrlar oldiga kuyiladigan eng muxim vazifalardan biri – malakali mutaxassislar sifatida o'zligini o'z kobiliyatlari, individualligi, shaxsiy fazilat xamda xislatlarini bilgan tarzda atrofdagilar mexnatini okilona tashkil etish va ijtimoiy foydali mexnatning boshka soxalarida iktidorli kasb soxibi sifatida faoliya ko'rsatishdir. Bu urinda inson ruxiyati konuniyatlarini urganuvchi psixologiya fanining urni va roli benixoya kattadir.

XXI asrda juda kuplab davlatlarda bo'lgani kabi dunyo xaritasida munosib urin olgan mustakil O'zbekistonda xam barcha soxalarda tub isloxtolar boshlandi. Bu isloxtarning barchasi inson omilini xar kachongidan xam yukori saviyaga kutarib,

uning kuchi, idroki saloxiyati, ruxiy xamda ma'naviy barkamolligini bevosita tarakkiyot, rivojlanish va sivilizatsiya bilan o'zviy bogladi. Bunda inson va uning mukammalligi, o'z ustida ishlashi, o'z mukammalligi xususida kaygurishi muammosi xar kachongidan xam dolzarb masalaga aylandi.

Yangi davr xar bir insondan o'z ichki imkoniyatlarini adekvat bilish, shu bilimlar zaxirasi bilan yakinlarni va xamkasblarni psixik dunyosini bilishni talab kilmokda. Buyuk Sukrot o'z davrida «o'z-o'zingni bil» degan shiorni urtaga tashlagan edi. Yangi davr bu bilimlar yoniga «o'z yoningdagilarni va ularning kilayotgan ishlarini xam bil» degan shiorni xar kachongidan xam dolzarb kilib kuydi. Ayni shu muammoni echishda Hozirgi zamon psixologiya ilmi va amaliyotining roli benixoyat kattadir.

Shuning uchun xam nafakat psixologiyadan mutaxassislar tayyorlaydigan bilim dargoxlarida, balki barcha bilim dargoxlarida, xattoki yangi tipdagi maktablar – litseylar va kollejlarda xam psixologiyadan sabok berish rejalashtirilganligi sababli pedagogika fakultetining «pedagogika va psixologiya» xamda maktabgacha tarbiya mutaxassislari tayyorlanadigan guruxlarda psixologiya ukitish metodikasi fani kiritilgan. Mazkur kursning asosiy maqsadi bulajak pedagog-psixologlar uchun zaruriy tavsiyalar – psixologiyadan ma'ro'zalar amaliy mashgulotlar, laboratoriya mashgulotlari tashkil etish metodikasi – ya'ni ularni yangi pedagogik texnologiya asosida qanday tashkil etish kaysi ilgor usul va vositalardan foydalanilsa, samaradorlikka erishish mumkinligi talabalar bilan birgalikda urganiladi, talabalar bilimini baxolash, pedagogik amaliyot davomida olib boriladigan ishlar, talabalarning mustakil ishlarini tashkil etish haqida ma'lumotlar beriladi. Bularning barchasi bulajak pedagog-psixologlar uchun o'z ish faoliyatlarini tashkil etishda katta yordam beradi, ta'lim jarayonini, darsdan tashkari talabalar faoliyatini to'la va okilona boshkara olishlariga kumaklashadi. Bu vazifalarni mukammal egallahay ayniksa bulgusi pedagoglar uchun zarur. Chunki o'qituvchilik kasbi barcha kasblarning onasidir – ya'ni o'qituvchi barcha kasb egalarini tarbiyalaydi. O'qituvchi maktabdagi ta'lim – tarbiya jarayonining asosiy tashkilotchisidir. Ta'lim-tarbiya davriy xodisa emas, u muttasil davom etadigan o'zluksiz jarayondir. O'qituvchi O'quvchilar uchun xamma joyda ibrat bulishi zarur. U o'z fanini yaxshi bilishi bilan birgalikda O'quvchilarning psixologiya va yosh xususiyatlarini, individual xususiyatlarini yaxshi bilishi, tarbiyaning kulay va samarali usullarini qo'llashda psixologik bilimlarga tayanishi zarur. Bola ruxiyatini bilmasdan turib ularning kalbiga yul topa olmaydi, bolalar bilan mulokotda bulish malakasini egallahay, ularni faol va mustakil, ijodiy fikrlashga urgatish, kobiliyatlarini shakllantirish uchun psixologiyani bilish talab qilinadi va bulajak pedagoglar bu urinda psixologiyadan olgan bilimlar tizimiga suyanadilar. Ota-onalar bilan ishlashda xam psixologik bilimlar yordam beradi. Nafakat ota-onalar, balki atrofdagi boshka kishilarga xam psixologik bilimlarni targib etish zarur. Chunki kishilar o'z xayot va faoliyatini o'zaro mulokotsiz tashkil etolmaydilar. Mulokotlar davomida xam xar bir shaxs o'z sheringining (o'qituvchi – O'quvchining, raxbar-xodimning, mutaxassis – o'z xamkasblarining, er-xotinning, xotin-erning, aka-ukaning va x.k.) psixologik xolatini, qiziqish va extiyojlarini, kobiliyat va imkoniyatlarini tugri baxolay olishi, uning

urniga o'zini kuya bilishi, «sherigi» ning yosh xususiyatlarini xam xisobga olishini bilishiga psixologiyadan berilgan bilimlar yordam beradi.

Yosh mutaxassis – pedagog-psixologlarga bu borada nimalarga e'tibor berishlari zarurligini mazkur kurs bilan tanishish davrida bilib boradilar.

Psixologiya ukitish metodikasi fanini urganishda ma'ro'zalar laboratoriya va amaliy mashgulotlar tashkil etiladi. Ba'zi mavzular mustakil urganish uchun tavsiya etiladi – bulaning barchasi bulgusi psixolog – pedagoglarning o'z soxalarini mukammal egallash va olgan nazariy bilimlarini amaliyotda muvaffakiyat bilan qo'llashlariga yordam beradi.

Mavzu yo'zasidan savol va topshiriqlar:

1. Psixologik bilimlarning xar bir inson uchun axamiyatini asoslab bering?
2. Psixologik bilimlarning pedagog va tarbiyachilar uchun axamiyati qanday?
3. Psixologiyani ukitishda ma'ro'za, amaliy va laboratoriya mashgultlarining urni qanday?
4. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida kuyilgan vazifalarni amalga oshirishda psixologiyaning urni

2-mavzu: PSIXOLOGIYA O`QITISH METODIKASI KURSINING DASTURI VA PSIXOLOGIYA O`QITISH MAQSADI REJA:

1. Psixologiya o`qitish metodikasi kursi dasturi.
2. Psixologiya o`qitish kursi maqsadi.
3. Fanni o`qitishda ilmiy kontseptsiyalarning roli.

Tayanch tushunchalar

Psixologiya yo`nalishlari, kontseptsiyalar, gumanistik yo`nalish, psixologik bilimlar moxiyati, psixologiya fanlari mavzularini rejalashtirish, psixologiya soxalari, psixologiya predmeti xamda ob'ekti

Psixologiya fanida gumanistik g`oyalarni tadqiqot qilish ishlari chet ellarda, asosan, AQSHda “Gumanistik psixologiya” deb nomlangan mustaqil sohada, ilmiy yo`nalishda (Sh.Byuler, A.Maslou, K.Rodgers, R.Olport kabilarning asarlarida) o`z ifodasini topgan edi. Mazkur yo`nalish namoyandalarining ta'lilotlarida shaxsning o`zini o`zi takomillashtirish, o`zini o`zi faollashtirish, o`zligini anglash (o`zini o`zi anglash), o`z ichki imkoniyatlarini to`la ro`yobga chiqarish g`oyalari aks etgan bo`lib, insonlardaadolat tuyg`usi, vijdonlilik, insonparvarlik, maslak, go`zallik va haqqoniylilik xislarini shakllantirishga qaratilgandir.

Gumanistik psixologiya sohasining muhim jihatlaridan yana biri-bu shaxsning mavhum (abstrakt), passiv inson sifatida tadqiqot ob'ekti singari tasavvur etmasdan, balki uning hamkorlik faoliyati, shaxslararo munosabatning teng huquqli a'zosi ekanligini tan olinganlikdan iboratdir. Lekin bu ta'lilotning zaif tomonlari ham mavjud bo`lib, u narsa insonning biopsixologik (biologik omillar, tug`ma mayl, iqtidor alomatlari, temperament) shart-sharoitlarning roliga ortiqcha baho bergenligida namoyon bo`ladi. Vaholanki, inson ijtimoiy munosabatlar mahsuli,

ijtimoiy muhit mevasi bo`lib hisoblanadi. Shunga qaramasdan, hozirgi davrda ham gumanistik psixologiyaning ilg`or g`oyalari, tizimi, tadqiqot uslublari o`z dolzarblilagini saqlab qolgandir. Gumanistik psixologiya namoyandalari to`plagan natijalarini milliy psixologiya, ijtimoiy garmoniya, muayyan muhit, hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda tahlil qilish orqali oliy maktab ta'lim-tarbiyasida gumanistik g`oyalarni singdirish imkoniyatini yaratadi.

Shuni alohida ta'kidlab o`tish kerakki, to hozirgi davrgacha respublika oliy o`quv yurtlarida psixologiya o`qitish ahvoli zamon, ijtimoiy taraqqiyot, insonning tayyorgarlik darajasi (aql-zakovoti) talabiga hech qanday javob bermaydi. Bu holatning bir necha ob'ektiv va sub'ektiv omillari mavjuddir: birinchidan, oliy maktab kafedralarining psixolog mutaxassislari bilan ta'minlanmaganligi (xohishi mavjud har qanday o`qituvchi saboq bermoqda): ikkinchidan, oliy o`quv yurtlarida faoliyat ko`rsatayotgan psixologlar malakasini oshirish ishlari yaxshi yo`lga qo`yilmaganligi: uchinchidan, kurslarda ma'ro'zalar katta guruh tizimida o`qilayotganligi: to`rtinchidan, qo`shimcha mashg`ulotlar va talabalar bilan individual ishlarni o`tkazish uchun fakultetlarda zarur shart-sharoitlar yaratilmaganligi: beshinchidan, darsliklar, o`quv qo`llanmalar etishmasligi: oltinchidan, aksariyat psixologiya sohasi bo`yicha ommaviy tarzda dasturlar chop etilmaganligi: ettinchidan, psixologiya faniga nisbatan panja ostidan qarash hollarining uchrayotganligi (ikkinchi darajali predmet sifatida): sakkizinchidan, oliy ta'lim vazirligi qoshida psixologiya fani va kadrlarning muvofiqlashtiruv kengashi mavjud emasligi va hokazo.

Yuqorida sanab o`tilgan negativ holatlarga qaramay, psixologiya fanini o`qitishni takomillashtirish, ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida qat'iy printsipga, muayyan xususiyatga ega bo`lgan kontseptsiya ishlab chiqildi. Uning asosiy mohiyati quyidagilarda o`z ifodasini topgandir.

1. Fan o`qitishda har qanday ilmiy kontseptsiyaga oqilona yondashish va tahlil o`tkazishni amalga oshirish, Chunki ilmiy psixologik yo`nalishlar g`arb, sharq, burjua, idealistik singari “yorliqlar” ostida talqin qilish an'anaga aylangan edi. Bugun ana shu qarashlar, kontseptsiyalar mohiyatini qaytdan ko`rib chiqish, bir qolipdagi talqindan voz kechish, u yoki bu nazariyalarni talabalarning o`zi hal qilishlariga sharoit yaratish, o`qituvchi-professorlar shaxsiy nuqtai nazarini majburan o`tkazishdan saqlanish. Ana shu tariqa, biz jahon psixologlari yaratgan durdonalar bilan talabalarning o`zi tanishish imkoniyatlariga sun'iy g`ov yaratilgan edi.

2. Jahon psixologiyasi fanining o`nlab ilmiy maktablari mavjuddir. Jumladan, bixevoirizm, geshtaltpsixologiya, assotsionizm, psixoanaliz, vyurtsburg, psixogenetik, empirizm, kognitivizm, gumanistik psixologiya va boshqalarning ilmiy-metodologik, ilmiy-nazariy, empirik-amaliy jihatidan nuqson qidirmasdan,balki eng oqilona tomonlarini amaliyotga tatbiq qilish tavsiyanomasini ishlab chiqish.

3. Jahon psixologiyasida yaratilgan metodlar, metodikalar, testlar, anketalar, zamonaviy apparatlar, laboratoriya mashg`ulotlari o`tkazish instruktsiyasi, trening, praktikum, psixologik kabinetni jihozlash uslubi, darslik va qo`llanmalmalarni mahalliy sharoitga moslashtirish va sinab ko`rish ishlarini keng ko`lamda yo`lga qo`yish orqali insonning muayyan xususiyatini to`la ochish imkoniyatiga erishish.

4. Psixologiyaning predmeti va ob'ekti mavhum shaxs, hodisa, xulq-atvor, faoliyat va muomalaga qaratilmasligi, balki real inson, muayyan yosh, aniq jins xususiyatlari yo'zasidan ma'lumot berishga yo`naltirishligi maqsadga muvofiq. Ana shu jarayondagina tabiatga va jamiyatga munosabatni shaxsi bilan, favquloddagi vaziyat bilan o'zviy bog`lab o`rganish imkoniyati yaratiladi. Ushbu muammolarni hal qilishda biosfera va neosferadan kelib chiqish joiz. Nazariy muammoning amaliy turmush bilan aloqasini oqilona tushuntirish va yaqqol namuna keltirish orqali ularga sharh berish talqinini yanada jonlantiradi, insoniy fazilat, xislat va sifatlardan andoza olishga talabani etaklaydi.

5. Psixologiya sohalarining har birida ham markaziy timsol inson shaxsi bo`lganligi uchun ularning o`rtasidagi qonuniyat, shart-sharoit xususiyatlari shu insonga sistemali yondashishni taqozo qiladi. Mazkur yondashish shaxsning ko`p qirralarini turlicha vaziyatlarda ro`y berish orqali aniqlanishi, uning to`g`risida ishonchliroq ma'lumot olish sharoitini yo`zaga keltiradi, Mavzulararo aloqani izchil ravishda amalga oshirish insonning alohida xususiyati, fazilati, kechinmalari, holatlari, his-tuyg`ulari, irodaviy sifati, iqtidori, qobiliyati, qiziqish va extiyojini yaxlit olib qarash imkonini vujudga keltiradi. Shaxs uchun o`zini o`zi takomillashtirish vositalaridan unumliroq foydalanish sari talabani undaydi.

6. Psixologiya sohasining har qaysisi real shaxsning individual (uslub, sezgirlik, ta'b, xususiyat, ishchanlik) va tipologik (oliy nerv faoliyati toifasi, qonuniyat, xususiyati, tug`ma mayl, temperament, ichki imkoniyat va boshqalar) xususiyatlarining namoyon bo`lishi hodisasi tadqiq qilinadi. Ta'lim jarayonini gumanizatsiyalash esa har bir talabaning ana shu xususiyatini hisobga olish, ma'lumotni qabul qilish tezligi tushunish darajasi materiallarni xotirada saqlash imkoniyatidan kelib chiqqan holda yondashishni talab qiladi. Toki talabani o`zlashtirish sur'ati, javob reaktsiyasi, aqliy imkoniyati o`qituvchi tomonidan to`g`ri hisobga olishga erishilsin.

7. Psixologik bilimlar bilan chuqurroq tanishish maqsadida iqtidorli, yaxshi o`zlashtiruvchi, bo`sh o`zlashtiruvchi talabalarning barcha toifalari bilan individual ishslash jadvalini to`zish va unda ularning har birining diqqat ko`lami, xotira xususiyatlari, fahm-farosat hajmi, fikr yuritish doirasini e'tiborga olib, topshiriq miqdori, murakkabligi, shug`ullanish vaqtini belgilash oliy mакtabda gumanistik g`oyani qaror toptirish ishiga xizmat qiladi.

8. Kurs va bitiruv mavzuini tanlashda talabalarga erk berish, ularni yoqtirgan, qiziqtirgan sohalarga jalb qilish: mazkur jarayonda ularning imkoniyati, iqtidori, ijodiy faoliyati, yozma nutq qobiliyatini hisobga olib muddat belgilash va talabchanlikka differentsial munosabatni amalga oshirish ma'qul. Faqat mana shu yo`llar bilangina ularning shaxsiyatiga nisbatan hurmat tuyg`usini namoyish qilish mumkin.

9. Reyting sistemasi sinovlari jarayonida talabalarning individual-tipologik, yosh xususiyati, jinsiy tafovuti, qizlik iffati, ibosi, hayosi: yigitlik g`ururi, sha'ni, mas'ulligi, turmush tajribasi, favquloddagi psixologik holatlarga e'tibor berish insonparvarlik g`oyasini inobatga olishni yaqqol namunasi hisoblanadi.

10. Jahon psixologiyasi fanining yutuqlari ilmiy kontseptsiyalari etnopsixologik holatga moslashtirib bayon qilish, to`plangan durdonalardan real shaxsning amaliyotda foydalanish yo`llarini uqtirib o`tish, bilimlarni puxta, barqaror o`zlashtirish imkoniyatini tug`diradi. Bilimlarni o`zlashtirishda milliy psixologik qonuniyatlar, ma'naviyatlar, qadriyatlar, stereotipler, identifikatsiya, appertseptsiya, antitsipatsiya, attraktsiya, refleksiya kategoriyalarining roli va ahamiyatiga e'tibor berish etnopsixologik xususiyatlarni hisobga olish ayni muddaodir. Gumanistik o`qitish yo`llaridan biri-o`qituvchi bilan talaba o`rtasida hamkorlik faoliyatini vujudga keltirish, umumiyo`qish faoliyatini hamkorlik jarayoniga aylantirishdan iboratdir. Bu holatda talaba ma'lumotlarni tinglovchi rolidan uning hamkorlikda egallash funktsiyasini bajaruvchi sherik darajasiga o`sib o`tadi. Avval taqlid, keyin identifikatsiya va oxirida refleksiya yo`llari bilan bilimlarni o`zlashtirish faoliyati doirasini kengaytiradi.

O`qitishning gumanistik yo`llari xilma-xil bo`lib, ulardan eng samarador bo`lganlari muammoli o`qitish, suggesteziya, evristik, programmalashtirish, o`zini o`zi boshqarish, aqliy faoliyatning bosqichli amalga oshirish, nazariy umumlashtirish (umumlashmadan yaqqollik sari) jahon psixologiyasida keng ko`lamda qo`llanib kelinmoqda.

Mavzu yo`zasidan savol va topshiriqlar:

1. Psixologiya o`qitish maqsadi va moxiyati.
2. Fan o`qitishda ilmiy kontseptsiyalarga yondoshuv.
3. Kurs va bitiruv ishi mavzusini tanlash.
4. Bilimlarni o`zlashtirishda milliy psixologik xususiyatlarni xisobga olish.
5. O`qitishning gumanistik yo`llarini taxlil qilish.
6. Juhon psixologiyasida yaratilgan metodlar, metodikalar.

3-mavzu: O`QITISH METODLARI TAVSIFI.

REJA:

- 1.Ta'larning faol, yangi (innovatsion) metodlari.
2. Pedagogik tizim va uning texnologiyasi.
3. Pedagogik texnologiyani ta'lim jarayoniga tadbiq etish.

Tayanch tushunchalar

Pedagogik tizim, ta'lim - tarbiya ishtirokchilari, ta'lim-tarbiya jarayoni, o`quv motivlari, muammolik, ijodiylik, mustaqil fikr lash, ijodiylik, ixtiyoriylik, amaliyotining nazariyadan ustuvorligi, hamkorlik faoliyati, o`qituvchi professiogrammasi.

Pedagogik va psixologik adabiyotlarda ta'limni takomillashtirish, o`quv-tarbiya jarayonini optimallashtirish, rivojlantiruvchi ta'lim, ta'larning faol yangi (innovatsion) metodlari, muammoli o`qitish metodi, programmalashtirish ta'lim kabi atamalar negizida o`nlab nazariyalar, yondashishlar to`g`risida ma'lumot berilgan. Har qaysi kontseptsiya o`z zamonusi uchun ilmiy progressiv g`oyani ilgari surgan va ta'lim-tarbiya jarayonining samaradorligini muayyan darajada oshirishga xizmat qilib

kelgan. Lekin ularning har biri alohida ilmiy uslubiy jihatdan tahlil qilinsa, o`zining bir tomonlamaligi bilan mangulikka daxldor ekanligi ko`zga yaqqol tashlanadi. Bunday umumiy nuqsonning asosiy sababi pedagogik texnologiyaning barcha tarkibiy qismlarining ham nazariy mulohazada, ham amaliy faoliyatda qamrab olinmaganligidir.

Ushbu kamchilikni keltirib chiqaruvchi bosh omil-ta'lism (tarbiya) jarayoniga sub'ekt (o`qituvchi) sifatida maqom (status) va rol berib kelinganligidir. Binobarin, ta'lism-tarbiya jarayoni bir tamonlama ta'sir o`tkazish va axborot (ma'lumot, bilim) o`zatish, har xil xususiyatlari malakalar shakllantirish tamoyillariga bo`ysundirilgandir. Natijada ta'lism-tarbiya jarayonining ishtirokchilari o`qituvchi bilan o`quvchilar o`rtasida teng huquqiylik bo`zilishi yo`z bergenligi tufayli birining ikkinchisi ustidan ustuvorligi hukmronligi qonuniy ahamiyat kasb etgan. O`quvchilar (talabalarning ehtiyoji, o`quv motivlari tabiiy mayllari iste'dodi, salohiyati, saviyasi, uquvi) zehni mazkur jarayonda hisobga olinmagan. Ta'lism tarbiya jarayonida sub'ekt (o`qituvchi)-sub'ekt (o`qituvchi yoki talaba) munosabati yaratilmas ekan, samaradorlik mustaqil (ijodiy) fikrlash to`g`risida gap bo`lishi mumkin emas.

Bizningcha, pedagogik tizim va uning texnologiyasi shartli ravishda quyidagi tarkibiy qismlardan iborat bo`lishi mumkin:

- ta'lism-tarbiya ishtirokchilari (o`qituvchi va o`quvchilar) shaxsiyatiga qo`yiladigan ijtimoiy talablar (jamiyatning komil insonga nisbatan ehtiyoji).
- hamkorlik faoliyati a'zolarining kasbiy tayyorgarligi darajasiga nisbatan ijtimoiy ehtiyoj (buyurtma).
 - ta'lism va tarbiya jarayonining maqsadi.
 - ta'lism va tarbiya jarayonining mazmuni, mohiyati.
 - ta'lism va tarbiya jarayonining amalga oshirish vositalari (metodlar, usullar, texnik vositalar, darsliklar, qo`llanmalar va h.k.):
 - ta'lism va tarbiya jarayonini individuallashtirish yoki differentialsallashtirish:
 - real sharoit, favquloddagi vaziyat, ikkiyoqlama (o`qituvchi bilan o`quvchilar xohishi) ishtiyoqini hisobga olib texnologik o`zgartirishlar kiritish.
 - Ijodiylik, ixtiyoriylik amaliyotining nazariyadan ustuvorligi muammosi birlamchi ekanligiga rioya qilish kabilar.

Ta'lism-tarbiya mazmuni to hozirgi kungacha kommunikatsiya, ya'ni biryoqlama axborot o`zatish (o`qituvchi axborot manbai, o`quvchi esa uni qabul qiluvchi) asosida qurilib kelinmoqda, vaholanki, u kommunikatsiya (o`zatish, ta'sir o`tkazish), interaktsiya (o`qituvchi bilan o`qituvchilarining o`zaro ta'sir o`tkazishi), pertseptsiya (insonni inson tomonidan idrok qilish, ya'ni o`quvchilarining o`qituvchi yoki o`qituvchining o`quvchi tomonidan idrok qilish) singari tarkiblardan iborat bo`lishi lozim. Ilg`or pedagogik texnologiyaga asoslangan rivojlangan mamlakatlarning pedagogik tizimi tajribasi amaliy ko`nikmalarni nazariy bilimlardan ustunroq (60% va 40%) bo`lishni tasdiqlamoqda. Birinchi galdeg'i vazifa-ta'lism-tarbiya mazmunini davr, zamon talabiga moslashtirishdan iboratdir. Ta'lism-tarbiya faol, innovatsion, noan'anaviy yo`llarni o`quv fanlarning o`ziga xosligidan kelib chiqqan holda yaratish va ularni (o`quvchi, talaba yoshiga, jinsiga, favquloddagi vaziyatga binoan) amaliyotga tatbiq etish.

Pedagogik tizimni takomillashtirish va pedagogik texnologiyani ta'lim-tarbiya jarayoniga muvaffaqiyatli tatbiq etish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- O`qituvchi va o`quvchi (talaba) shaxsini:
- Odam-inson-shaxs-individuallik-sub'ekt-komil inson shaklida shakllantirish:
- O`qituvchi professiogrammasi (psixogrammasi) ni zamon talabiga binoan yaratish:
 - O`quvchi (talaba) saviyasi, shaxsi, xarakteri, iste'dodi, intellekti, xulqi, malakasi, irodasi, ehtiyoji, motivi va his-tuyg`usini baholash testlarini ishlab chiqish:
 - O`quvchilar (talabalar) va o`qituvchilarda muayyan fazilatlar, xislatlar, sifatlar, xususiyatlarni shakllantirish uchun trening, ishbilarmonlik o`yinlari, psixodrama, fikrlar jangi va maxsus mashqlardan unumli foydalanish:
 - O`qituvchi malakasini oshirish va qayta tayyorlash yo`llarini takomillashtirish, ularda ijodiy izlanishlarni shakllantirish.
 - Reyting, test, model tizimlari samaradorligini oshirishda boshqa metodlarni amaliyotda qo`llash.
 - O`quvchilar (talabalar) yoshiga, fanlarning mohiyatiga binoan pedagogik texnologiyaning vositalarini saralash va zamonaviysini kashf qilish:
 - Matnlarda bayoniylidan chekinish va muammolik, ijodiylik, mustaqil fikrleshsga o`tish.
 - Ta'lim (tarbiya) dasturining invariantlarini, modifikatsiyalarini yaratish va amaliyotga joriy qilish:
 - O`quv (o`qish) motivlarini shakllantirish uchun aloqani amalga oshirish, toki takroriy bilimlarga yo`l qo`ymaslik:
 - Ta'lim-tarbiya jarayonining faol, innovatsion, noan'anaviy, ijodiy uslublari va shakllarini amaliyotda qo`llash: darsning to`zilishi va bosqichlari to`g`risidagi rasmiyatlichkeitdan qutilish, majburiylikdan xalos bo`lish orqali ixtiyorilikka o`tish va undan shaxslararo moslikka, tenglikka erishish.

Ta'lim-tarbiya jarayonini (o`qituvchi bilan o`quvchilar va o`qituvchilarning o`zaro) hamkorlik faoliyatiga aylantirish “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” ning amaliy ifodasini qaror toptirishni tezlashtiradi.

Ta'lim jarayonida yaqqol tasavvurlik, tasviriy ko`rgazmalilik, “Jonli mushohada” lik materiallarining o`rn nihoyatda muhimdir. Ma'lumki, o`zlashtirilgan o`quv materiallarining aksariyat qismi hissiy tana a'zolarimiz (organizm) tomonidan aks ettiriladi. Shuning uchun talabalar bilimlarni turli vositalar, usullar yordami bilan egallash paytida yaqqol narsalar, obrazlar, hodisalar, holatlar va jismlarni yoki ularning ramziy tasvirini ko`zatish natijasida yaqqol tasavvur obrazlarini yaratdilar. Psixologik nuqtai nazaridan ko`rgazmalilik tabiiy-jisml (predmetli), tasviriy va jonli nutq yoki “jonli mushohada” turlariga ajratiladi.

Psixologiya fanini o`qitishda yangi mavzular auditoriyada qisqa muddatli tajriba o`tkazish yoki ba'zi ob'ektlarga sayohat (ekskursiya) uyuştirish bilan bog`liq ravishda olib borilsa, u holda ko`rgazmalilikning yaqqol tabiiy ko`rinishiga asoslanilgan bo`linadi. Mazkur holat psixologik o`quv materiallarini talaba tomonidan puxta va tez o`zlashtirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Bundan

tashqari, tajriba maydonlarida, o`quv laboratoriylarida, jonli burchaklarda (zoopsixologiya kursi bo`yicha) o`tkaziladigan mashg`ulotlar ham shularning jumlasiga kiradi.

Tasviriy ko`rgazmalilik rasmlar, mulyajlar, kinokartinalar, chizmalar, jadvallar, sxemalar, grafiklar, diagrammalar, kartinalar, texnika vositalari, kompyuter imkoniyatlari va boshqalar ramziy belgi (alomat, tasvir) turli apparatlar orqali namoyon qilinadi.

Jonli nutq ko`rgazmalilikida o`qituvchi talabalarda yaqqol tasvirlar va obrazlarni uyg`otadigan yorqin, jonli iboralardan foydalanadi. Jonli nutq ko`rgazmalilik sifatida qadim zamonlar qo`llanib kelinayotganligi hammaga ayon. O`qituvchining auditoriyada o`zining fan sohalariga taalluqli bilimlarini talabalarning ongiga singdirishda asosiy ta'lim vositasi sifatida jonli nutqdan foydalanish an'anaviy tus olgan. Nutqning o`ziga xos xususiyatlari, mexanizmlari, artikulyatsion apparatlari, namoyon bo`lishining o`ziga xosligi, youning tempi (sur'ati), tembri, chastotasi, ovoz toni kabi jabhalari uni qabul qilishni maqsadga muvofiq tarzda amalga oshishni ta'minlaydi. Nutqda bevosita ishtirok etuvchi, noverbal tomonini mujassamlashtiruvchi paralingvistik, ekstralivingistik, proksemik ko`rinishda aks etadi.

1. Paralingvistika o`z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: tovush yoki ovozning shiraliligi, uning diapazoni (ko`lami) va balandligi, insonning bir-biriga yo`zma-yo`z tiqilishi kabilar.

2. Ekstralivingvistika: nutq tempi (sur'ati), tembri, chastotasi, ritmikasi, imoshora, mimika, pantomimika.

3. Proksemika: ko`z bilan aloqa o`rnatish, fazo va vaqt mujassamlashuvi, tana a'zolarining harakatlari, ko`zning rang-barang harakatlari va hokazo.

Nutqning noverbal ko`rinishlarida o`qituvchining foydalanishi bir davning o`zida muayyan izchillik kasb etib, muallim bilan talabalar hamkorlik faoliyatini mahsuldar tarzda amalga oshirilishiga safarbar qilinadi.

Mavzu yo`zasidan savol va topshiriqlar:

1. Ta'limni takomillashtirish xaqidagi nazariyalar.
2. Pedagogik tizim va uning texnologiyasi.
3. Xamkorlik faoliyati a'zolarining kasbiy tayyorgarligi darajasi.
4. Ta'lim va tarbiya jarayonining amalga oshirish vositalari.
5. Ta'lim va tarbiya jarayonini individuallashtirish yoki differentialsallashtirish.
6. Ta'lim (tarbiya) dasturining invariantlarini, modifikatsiyalari.

4-mavzu: PSIXOLOGIYA O`QITISH METODIKASI KURSI MAZMUNI REJA:

1. Hozirgi davr psixologiya Fani mazmuni va moxiyati.
2. Ta'limni takomillashtirishning psixologik asoslari
3. Hozirgi davrda psixologiya fanining muhim, dolzarb vazifalari.
4. Psixologiya fanining nazariy muammolari.

Tayanch tushuchalar

Ong va faoliyat birligi, onglilik, ongsizlik, ongostilik, insonning inson tomonidan idrok qilinishi, antitsipatsiya, refleksiya, attraktsiya, idrok, tashqi qiyofa, muloqot, xamkorlik.

Hozirgi davrda psixologiya fani keskin o`zgarishlarni boshidan kechirayotir. Unda ichki to`zilishi, tarkibiy qismlari, ularning o`zaro uyg`unligi, mohiyati va talqin etilishi jihatidan qayta qurishlar, har qaysi narsa va insonga (jonli va jonsiz tabiatga) insonparvarlik psixologiyasi qonuniyatlari hamda printsiplari asosida yondashishni tatbiq qilish namoyon bo`lmoqda. Narsa va hodisalarga, hayvonot va insoniyatga nisbatan yangicha yondashish, ularning shaxs tomonidan aks ettirilishini faqat onglilik holatidan kelib chiqqan holda ta'riflash bilan cheklanib qolmasdan, balki odamning ongsizlik va ongostlilik (g`ayri ixtiyoriylik) holatlari bu borada muayyan ahamiyat kasb etishini tushuntirish, unda bir holatdan ikkinchisiga o`zluksiz o`tib turish tabiiy ravishda ro`y berishini ta'kidlash o`rinlidir. Chunki shu davrgacha psixologiya fanida etakchi printsip sifatida "ong va faoliyat birligi" hisoblanib kelindi, binobarin, psixikaning har qaysi ko`rinishi, bosqichi, xususiyati, darajasi, xossasi, o`zaro ta'sirlanishi, bir—birini taqozo etuvchanligi faoliyat nuqtai nazaridan baholanishi an'anaga aylandi. Natijada onglilikdan chetlanish holatining inson hayoti uchun ahamiyati tadqiqotchining diqqat markazidan, izlanish mavzusidan ancha o`zoqlashdi. Buning oqibatida shaxsning ongosti, ongsizlik holatlari, bularga uning moslashishi, intilishi, bilish sababi va mayli, ruhiy tayyorligi, ixtiyorsizligi, muvofiqlashuvi, to`silar va qarama—qarshiliklarga nisbatan ichki kurashi, shuningdek, uning mexanizmlari kabi muammolar echimi uchun qay darajada ahamiyatli ekanligiga oqilona baho berilmadi. Aks ettirishning moddiy asoslariga suyangan holda tushuntirish, talqin qilish nazariyalari ilmiylik jihatdan qo`pol nuqsonlarga ega bo`lmasa—da, lekin psixikaning o`ziga xosligi, muomala xususiyatlari va ixtiyorsizlikni ta'riflashdagi cheklanganligi, bir tomonlamaligi natijasida ularning ko`p jihatlarini tushuntirish imkoniyati mumkin qadar pasaydi.

Shu narsani alohida ta'kidlash kerakki, insonning hayoti va faoliyati o`zaro o`zvyi bog`liq, biri ikkinchisini takozo qiluvchi uchta muhim manbadan, ya'ni ongsizlik, ongostlilik va onglilik holatlaridan tashkil topgan holda hukm suradi. Shuning uchun ham insonning bir kecha — kundo'zdagi umri ongsizlik, ongostlilik va onglilik holatlarining hukmiga tobelikda kechadi, ularning har qaysisi qanday vazifa bajarishidan qat'i nazar ongsizlik (faol hordiq) — ongostlilik (muvoifiqlashgan izlanish) — onglilik (aqliy zo`riqish, ixtiyoriy ijod) holatlaridan iborat o`zluksiz halqa harakatlaridan to`zilgan bo`ladi.

Insonning ongsizlik holatida ixtiyorsiz diqqat, ixtiyorsiz esda saqlab qolish, esga tushirish, assotsiatsiyalar, obrazlar, intuitsiya, anglashilmagan mayllar, irsiy alomatlar, tasodifiy voqealar, tush ko`rishlar, xayoliy timsollar, insonning biron—bir narsaga psixologik jihatdan tayyorgarligi yo`zaga keladi va ularning mahsuli xuddi shu jarayonda namoyon bo`ladi. Bularning kechishi unchalik ko`p fursatni talab qilmasa—da, lekin ma'lumotlarning to`planishi tabiiy omillar ta'sirida vujudga keladi, bu hol atrofdagi muhit bilan tanishishda muhim ahamiyat kasb etadi, ular jismoniy a'zolarning umrini o`zaytirishga xizmat qiladi. Ijodiy mantiqiy fikrlash

shaxsga muvofiqlashgan xatti — harakatlar vujudga kelishiga puxta zamin hozirlaydi, ularni muayyan materiallar bilan ta'minlaydi.

Odatda ongsizlik holati bilan ongli holat o`rtasida oraliq holat mavjud bo`lib, u ongostlilik atamasi bilan belgilanadi, uning inson hayoti va faoliyati uchun qanchalik ahamiyatlari ekanligi o`rganiladi. Insonda kechishi mumkin bo`lgan faoliyat, muomala, xulq — atvor, ijodiy tashabbus, ilhomlanish kabi jarayonlar shaxsga tobora muvofiqlashib borsa, ularning boshqarushi engil ko`chsa, shakllangan, barqarorlashgan, mustahkam, puxta uquv va malakalar o`z vazifasini bajarishga kirishsa, bularning barchasi ongostlilik holatining bevosita hukmi ostida ro`y beradi

Hozirgi davrda psixologiya fanining muhim, dolzarb vazifalaridan biri — bu uning tadqiqot metodlari va printsiplarini nazariy hamda metodologik jihatdan chuqurroq tadqiq qilishdan iboratdir. Jumladan, ko`zatish juda sodda, ikki ko`rinishga (ko`zatish va o`zini o`zi ko`zatishga) ega bo`lgan amaliy tajriba metodi tariqasida tahlil kilinmasdan, balki uning murakkablik xususiyatlarga xos metodikalarni qamrab olish zarurligini ta'kidlab o`tish, natijalarni qayd qilishning o`ta murakkab texnologiyasi mavjudligini, ijtimoiy psixologik yondashuvda u alohida ahamiyat kasb etishini uqtirib o`tish maqsadga muvofiqdir.

Psixologiya fanining nazariy muammolari qatoriga yana insonning inson tomonidan idrok qilinishini kiritish mumkin. Chunki insonning ayrim xususiyatlari uning yo`z alomatlari, chehrasidagi o`zgarishlar, tana a'zolarining harakatlari orqali aniqlanadi. Odamning tashqi ko`rinishiga asoslanib, uning xarakter xususiyatlari, xislatlari yo`zasidan ishonzili mulohaza bildirish ko`p asrlik tadqiqot tarixiga ega bo`lsa — da, lekin muammoning tub ilmiy negizi endigina kengroq o`rganilmokda. Insonning tashqi qiyofasini tahlil etish orkali uning ichki dunyosiga baho berish bo`yicha jahon psixologlari tomonidan to`plangan natijalar umumlashtirilsa, mazkur holatni quyidagi ko`rinishlarga ajratish mumkin:

1. Insonning tashqi qiyofasidagi har bir o`zgarish, uning aynan bir — biriga o`xshashligi, kishining yaqqol shaxsiy xususiyati bilan o`zviy bog`liq ekanligini tushuntirishga asoslangan analistik yoki aql — mulohazaga moyil talqin uslubi, masalan, labni qattiq qisib yurishlik — odamning mustahkam irodaliligi alomatidir. Ijtimoiy-tarixiy taraqqiyot davomida ajdodlar tomonidan to`plangan tajribalarga asoslanib, odamning tashqi qiyofasiga qarab ruhiy dunyosini baholash.

2. Insonning tashqi qiyofasidagi (attraktsiya) ixtiyorsiz ifoda, nafosatli ko`rinish, o`ziga mahliyo etishlik, jozibadorlik, xushbichimlilik shaxsning his — tuyg`usi xususiyatlari bilan uyg`unligini e'tirof qilishga qaratilgan yondashuv: did bilan kiyinish, me'yori bilan o`ziga oro berish, ibo va ishvanning tabiiyligi, guyoki uning ichki dunyosi bilan mutanosibdir. Idrok qilinayotgan inson muayyan masofada muloqotga kirishuvchi tomonidan qay yo`sinda qabul qilinsa, demak, uning to`g`risidagi taassurot bevosita favquloddagi holatga bog`liq bo`ladi, chunki yoqish, yoqtirish, simpatiya — (yunoncha "sympathea" ichdan yoqtirish, ichki mayl, iliqlik, samimiyat ma'nosini anglatadi), ichdan yoqtirmaslik, xush ko`rmaslik, antipatiya — (yunoncha "antipatheio" simpatiyaning aksini bildiradi), — muruvvat, (yunoncha "epatheia" — hamdardlik, xayrixohlik tuyg`usini bildiradi, o`zgalar ruhiy kechinmalariga sheriklik, hamohanglik hissini ifodalaydi) bir lahzalik idrok qilish mahsulida o`z aksini topadi.

3. Idrok qilinayotgan tashqi ko`rinish alomatlari ilk taassurot uyg`otuvchi boshqa shaxsga o`xhashligi tufayli tanish odamdagи psixologik xususiyatlar, xislatlar, fazilatlar, sifatlar ixtiyorsiz ravishda notanish kishiga qiyos beriladi. Avval idrok qilingan tanish insonning barcha ruhiy holatlari tashqi qiyofa evaziga notanishga ko`chiriladi, vaholanki, bu kezda mantiqiy tahlil, o`zviylik talqini ishtirok etmaydi. Shuning uchun bu tarzda insonning inson tomonidan idrok qilinishini o`xhashlikka asoslangan in'ikos deb nomlasa bo`ladi.

4. Tashki qiyofani idrok qilish zamirida insonning u yoki bu ijtimoiy guruhga (ishchi, dehqon, ziyoli) aloqadorligi to`g`risida muayyan qarorga kelinsa, uning shaxsiy fazilatiga nisbatan xuddi shu nuqtai nazardan baho beriladi va tashqi ko`rinishning ijtimoiy kelib chiqishi bilan o`xhashligiga asoslaniladi.

Shuni alohida ta'kidlash zarurki, psixologiyada refleksiya, ya'ni o`zini o`zi anglash shaxsning barcha hissiy, bilishga oid, irodaviy, boshqaruв xususiyatlarini oqilona baholashni bildiradi, degan qarashlar to hozirgi kungacha davom etmoqda. Bunday yo`sindagi ilmiy talqin qilish inson tomonidan o`zini o`zi aks ettira olishni bildiradi, xolos. Lekin o`zga kishilar uning shaxsiy sifatlarini qay hajmda bilishadi, unda qanday baholash imkoniyati mavjud, uning nimalarga qodir ekanligini tushuna olishadimi, degan savollarga javob berish orqali anglashning boshqa qirralarini aniqlash mumkin. Insonlar o`zaro bir—birini idrok qilish jarayonida, birinchidan, haqiqatan ham idrok qilinayotgan shaxsning asl ruhiy qiyofasi ifodalanishida; ikkinchidan, shaxs o`zini aniq tasavvur qilib, to`g`ri baholay olishi; uchinchidan, shaxsning boshqa odamlar tomonidan anglanishi ikki yoqlama in'ikos qilish jarayonining vujudga keltirishi ma'lum bo`ladi. Shaxslarning o`zaro bir — birlarini aks ettirish jarayonining mohiyati inson fazilatlarini qayta esga tushirish, qayta tiklash va mujassamlashtirish jarayonida o`z aksini topadi.

Muammolar to`g`risida mulohazalar yuritilayotganda yana bir muhim jabhani tahlil qilish juda o`rinlidir. Chet el psixologlari asarlarini tahlil qilish inson amalga oshiradigan faoliyat maqsadini ruyobga chiqarish rejasi va modelini yaratishda o`z ifodasini topuvchi antitsipatsiya (lotincha "anticipo" — oldindan sezish, payqash ma'nosini bildiradi) bir necha bosqichlardan iborat ekanligi namoyon bo`lmoqda.

Antitsipatsiya hozirgi zamon rus psixologiyasida besh darajaga ajratilib o`rganilmokda: chunonchi, anglashilmagan, subsensor (lotincha "sub" — osti va "sensis" — sezish so`zlaridan to`zilgan bo`lib, idrok qilishning ongostki holatini anglatadi), sensomotor (lotincha "sensus sezish, "mator" harakat degan ma'noni bildirib, nozik harakatlarni sezish demakdir), pertseptiv (lotincha "perceptio" — idrok degan ma'noni anglatadi), tasavvur, bashorat qilish (nutq va so`z yordamida amalga oshiriladi) kabilalar. .

Psixologik bilimlarni o`zlashtirish, ulardan amaliyotda foydalanish uchun fanning barcha sohalari bo`yicha ma'lumotga ega bo`lish lozim. Psixologiya o`qitishni qulaylashtirish faqat metodologik muammolar echimini qidirish bilan kifoyalanib qolmasdan, balki ta'lim berish, o`zlashtirish, xabarlarni qabul qilishning yangi shakllari, vositalari va variantlarini yaratishni ham qamrab oladi. Ayniqsa, bugungi kunda iqtidorli bolalar, aqliy salohiyati yuksak o`quvchilar muammosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuning uchun iqtidorlilik bilan intellekt

ko`rsatkichi o`rtasidagi o`zviy bog`lanishlar va farqlar aniqroq tahlil qilinsa, amaliyatda uchrayotgan nuqsonlar, qusurlar miqdori biroz kamaygan bo`lar edi.

a) talabalarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olib auditoriya mashg`ulotlarini kichik kurslarda 24 soat, katta kurslarda 28 soat qilib belgilash mustaqil fikrleshga, ijobjiy izlanishga puxta zamin hozirlaydi hamda ishchanlik qobiliyatiga putur etkazmaydi, bu psixologik voqelik bosqichma-bosqich amalga oshirilishi kutiladi;

b) jahon ilg`or tajribasiga asoslangan holda nazariy va amaliy bilimlar nisbatini 30:70 etkazish kasbiy malakalarini takomillashtirishga xizmat qiladi; bizning mutaxassislar boshqa mamlakatlar kadrlaridan nazariy jihatdan ustunlar, lekin ko`nikmalar egallahancha zaifdir; ana shu yo`l bilan kundalik talaba faoliyatini ikki qismga ajratish imkoniyati yaratiladi (9-12;13-17), bu esa o`z navbatida uy topshiriqlarini keskin qisqartirishga olib keladi, ijodiy izlanish, mustaqil fikrlesh tanqidiy munosabatni talabalarda shakllantiradi; (o`qituvchilar nazariy yuklamasini 280 soat qilib belgilash o`qitish sifati, samaradorligini oshiradi);

v) o`quv dasturini mumkin qadar ixchamlashtirish-uni rejalashtirishni osonlashtiradi; ma'lumki, 2 soatga mo`ljallangan dastur mavzusida o`rtacha 30 ta ilmiy tushuncha, atama mujassamlashgan, lekin ularning mohiyatini ochib berish juda mushkuldir; bizningcha, yo`zakilik aynan shundan kelib chiqadi, mulohaza o`rnini ta'kidlov egallyaydi, xolos: buning uchun muhim tushunchalar, ta'riflar, teoremlar tanlab olinishi, yordamchilarini esa manbalar bilan tanishishga yo`naltirish ma'qul, ana shunda chalkashliklar barham topadi;

g) o`qitishni faol uslublar negiziga qurish lozim, toki bunda o`qituvchi bilan talaba hamkorligi ustuvor o`rin egallasin; test, bahs, ishbilarmonlik o`yinlari,

qiyinlashtirilgan pedagogik muammo, evristika, trening, psixodrama, boshqotirma, fikrlar jangi kabi faol, mustaqillikka etaklovchi o`qitish metodlari va shakllari- oliv ta'larning negiziga aylansin; kompyuterlashgan ta'lim, masofadan o`qitish (internet) va hokazolar zamon talabi, ehtiyoji, zaruratidir;

d) darslik va qo`llannmalar hajmi o`sprinlarning yosh xususiyatlari, imkoniyatlariga mutlaqo mos tushishi lozim; chunki 17-18 yoshlik talabalarning diqqat barqarorligi 60 minut atrofida, mabodo matn hajmi katta bo`lsa, uni o`zlashtirish darjasini shunchalik qiyin kechishi ko`zatiladi; radio va televideenie diktori bir bet matnni (1680 alomatni) 2 minutda o`qiydi, biroq o`zlashtirmaydi, agar bu jarayon psixologik jihatdan tahlil qilinsa, u holda tushunish uchun (ilmiy tilda bitilganligi hisobga olinsa) 3 marta ko`p vaqt sarflanadi; 10 bet matnga bir soat vaqt talab qilinadi, agar 3 ta fandan mustaqil topshiriq berilgan bo`lsa, u taqdirda matnlarni egallah ko`rsatkichi yanada pasayib ketishi shak-shubhasiz; darslik sahifalari har xil shriftda berilishi, ajratib ko`rsatishi, qoramtilroq qilinishi, tagiga chizilishi va hokazolar vosita sifatida xizmat qiladi; hatto jahon psixologlari talabiga binoan darslik (qo`llanma) paralingvistik, ekstralinguistik, proksemik qonuniyatlarga asoslangan holda yozilsa, uning matnlarini egallah ko`rsatkichi ko`tariladi, ishchanlik qobiliyati yo`qolmaydi, aqliy zo`riqish, asabiy taranglik hodisalari mumkin qadar kamayadi.

4. Talabalarda fikrlashni shakllantirish, ijodiy izlanishga o`rgatish, tanqidiy tafakkurni tarkib toptirish-oliy maktab psixologiyasining dolzarb muammolaridan biridir. Ularda yuqoridaagi jarayonlarni shakllantirish faol ta'limiy uslublardan foydalanish natijasida ro`yogha chiqishi mumkin. Shuningdek, mashg`ulotdan tashqari davrlarda, mustaqil faoliyatni amalga oshirishda yoki o`qituvchi tomonidan unga talabalarni o`qitish orqali erishiladi, xolos. Maxsus mashg`ulotlar ularga mustaqil ravishda bilim olish vositalari bilan qurollanadir:

a) fan to`garaklari, tezis, referat, kurs ishi, bitiruv ishi, birlamchi manbalar bilan shug`ullanish kezlarida muayyan maqsad amalga oshadi va u yoki bu darajada shaxsiy, protsessual xislatlari tarkib topa boshlaydi;

b) iste'dodli talabalar faoliyatini tashkil qilish; birinchidan, fanlar bo`yicha erishilgan ko`rsatkichlar iste'dodning aynan o`zi emas, albatta bu birgina mezoni, xolos; ikkinchidan, iste'dod topshiriqlar rang-barangligini tushunish va ularni echishni uddalash; uchinchidan, ijodiy unsurlarning mavjudligi va o`zlucksizligi, to`rtinchidan, vaqt tejamkorligi, bashorat qilish layoqatining mavjudligi, beshinchidan, nostonart topshiriqlarni bajarish, shuningdek, shartlari etishmasligi va ortiqchaligini payqash (sezish) yoki antitsipatsiyaga moyillik hukm surishi; maxsus dastur asosida, alohida tartibda mashg`ulotlar uyushtirish; ijodiy izlanishni xohish, layoqat, mayl va motivdan kelib chiqqan holda tashkil qilish iste'dodlilar kamolotini oqilona amalga oshirish bilan yakunlanadi.

5. Talabalarni milliy g`oya va milliy istiqlol mafkurasi ruhida tarbiyalashni amalga oshirish muhim muammolar sarasiga kiradi. Vatanparvarlik, fidoiylik yuksak his-tuyg`ularini talabalarga maxsus ravishda shakllantirish orqali hamda ijtimoiy-siyosiy fan asoslari mohiyatiga singdirish yordami bilan ularni ongiga yo`naltirish-hozirgi zamon oliy maktab psixologiyasining dolzarb masalalaridan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagi muammolarni hal qilish ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishga xizmat qiladi, sifat darajasini orttiradi.

Mavzu yo'zasidan savol va topshiriqlar:

1. Oliy maktab psixologiyasining dolzarb muammolari.
2. Fan asoslarini egallash sifati, mahsuldorligi.
3. Oliy maktab o`quv rejasи, dasturi.
4. Talabalarning bilim olish qobiliyati, iste'dodi, zehni va uquvchanligining rivojlantirish yo`llari.
5. Muallimning o`qituvchilik mahorati, o`qitish uslubi, muomala maromi.
6. Oliy o`quv yurti professori-o`qituvchisi talabani nimaga o`rgatadi?
7. Oliy o`quv yurtida mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligi.
8. Ta'limdi boshqarish tizimi.

**8– mavzu: PSIXOLOGIYADAN MUSTAKIL ISHLARNI TASHKIL ETISH
R E J A:**

1. Psixologiyadan tashkil etiladigan mustakil ishlarning axamiyati.

Mustakil ish turlari:

3. Ilmiy psixologik adabiyotlardan referat to'zish.
4. Maktabda psixologik-pedagogik tadqiqot ishlarini olib borish.

Tayanch tushunchalar:

Tadqiqot faoliyati, nazorat ishlari, referat, psixologik-pedagogik tadqiqot ishlari, adabiyotlar tahlili, mustaqil ish, to`garak, konferentsiya.

Yukori malakali mutaxassis o`qituvchilarni tayyorlash Respublikamiz oliy maktablari oldida turgan muxim vazifalaridan biridir. Mazkur vazifani xal qilish uchun biz talabalarimizni O`quvchilar bilan ish olib borishga, O`quvchilarning psixik xususiyatlarini urganish buyicha ilmiy tadqiqot ishlarining olib borishga urgatmogligimiz zarurdir.

Oliy maktab tizimida bu masalani xal qilish uchun avvalo talabalar tadqiqot faoliyatini izchillik bilan tugri tashkil qilish, institutda olgan nazariy bilimlarni maktabdagi ta'lim tarbiya ishlarida qo'llashdan oldin tajribalarni umumlashtirish zarur.

Referat shaklida yozilgan nazorat ishi odatda qismlarga ajratilib beriladi. Jumladan «asosiy qism» «ishning maqsadi» va «vazifalari», «xulosa va muloxazalar».

Tadqiqot xarakteriga ega bo`lgan nazorat ishlarida qisqacha nazariy kirish qismi va metodik tafsilot berish keyin esa asosiy material bayon etilib, taxlil qilish va xulosa chiqarish talab qilinadi. Bundan tashkari tajriba o'tkazishda yozilgan qarorlar, anketalar, kundalik yozib olingan ma'lumotlar albatta kushib topshirilishi shart.

Uchinchidan savollarga berilgan javoblar foydalanilgan adabiyotlar manbalariga va kundalik daftarlarda ko'rsatilgan ko'zatish ma'lumotlariga yoki qaror ta'kidlagan fikrlarga asoslanmogi lozim.

Talabalar 4-qism buyicha berilgan vazifalarni topshirganda ukigan ma'ro'zasi yoki ma'ro'zasining bat afsil matni, uning rejasi bilan bиргаликда foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatib munozara yoki ma'ro'za ukiganligi tugrisidagi tasdiqlangan xujatlarni taqdim etishlari kerak.

O'qituvchi bulib ishlaydigan talabalarga mакtabga borib ishlash bilan boglik vazifalarni bajarish tavsiya etiladi. Bu esa ularga o'qituvchilik kasbiga tezrok kirishishga yordam beradi.

Nazorat ishini topshirish muddati fakultetning ukuv jadvalida ko'rsatiladi. Nazorat ishini bajarish jarayonida uchragan kiyinchiliklar va shu munosabat bilan yo'zaga kelgan savollar buyicha talabalar topshiriq bergen asosiy o'qituvchiga shaxsan yoki xat orkali murojaat kilib, maslaxat surashi mumkin.

Psixologiya fanidan imtixon topshirishda talaba albatta tekshirilgan nazorat ishining takrizi bilan kelishi lozim. Bunda o'qituvchi nazorat ishining talaba tomonidan nakadar mustakil bajarilganligini bilish maqsadida talabandan ishning mazmunini ogzaki surab kuradi. Agar javob konikarli bulsa, imtixonga kuyiladi.

Ilmiy psixologik adabiyotlardan referat to'zish:

Bu xilda vazifa berishdan asosiy maqsad talabalarni asosiy psixologik adabiyotlar va Hozirgi psixologik tadqiqotlar bilan tanishtirib chiqishdan iboratdir. Shu bilan bir katorda referat to'zish orkali talaba ayrim ilmiy asarlarni chukurroq urganib oladi. Bu esa talabaga kitob bilan ishlashning aynan shu bir masala tartibidagi turlicha nuktai nazarlarning xususiyatlarini ochib berishga xam, referat to'zayotgan ishning axamiyatini amaliy va nazariy tomonidan baxolashga xam intilishi zarur. Agar talaba o'zi to'zgan referatida asar muallifining goyalari va xulosalariga nisbatan o'zining shaxsiy munosabatlari va o'z ko'z karashlarini yoritib bersa juda yaxshi buladi.

Maktabda psixologik pedagogik tadqiqot ishlarini olib borish.

Bu xildagi vazifaning asosiy maqsadi talabalarga ilmiy ish bilan shugullanishga, maktabda oddiy tajribalarni olib borishga urgatishdan iborat.

Bu xildagi vazifani bajarishdan avval urganiladigan muammoni aniklab olish, uning anik maqsadlarini belgilash, qanday metodika asosida ma'lumotlar tuplash va u ma'lumotlarni ish ustida puxta uylab ko'rsatmok lozim. Tajribalardan olingan ma'lumotlarni talaba o'zining amaliy faoliyatida qo'llashi juda muximdir.

Bu erda kuyidagi muammolarni urganishni tavsiya etiladi:

O'quvchilarning qiziqishlari, xatti-xarakat motivlari. O'quvchilarning ma'nnaviy tomonlari, ishning talabchanlik darjasи, shaxslararo munosabatlar. O'quvchilar shaxsining irodaviy sifatlari. Darsda O'quvchilarning dikkati, xotira tiplari, fikrlash operatsiyasi, tafakkur masalalarini echish. Bu xildagi vazifalarni bajarganda maktabda olib borilgan tajriba qarorlarini nazorat ishi bilan bирgalikda topshirish kerak. Maktabda olib boriladigan xar qanday tadqiqot biz uchun noma'lum masalani aniklashdan iborat. Psixologik va pedagogik tadqiqotlarda kupincha ko'zatish, Ekperiment (tajriba) testlar, suxbat, anketa, faoliyat samaradorligini taxlil qilish, sotsiometrik metodlari kullaniladi. Ana shu materiallarning moxiyatini to'la tushungan va o'z tadqiqotlarida tugri kullay bilgandagina nazorat ishining natijasi samarali buladi.

Psixologik nazariyani ta'lim-tarbiya ishlarida qo'llash.

Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati ma'lumki, ko'pincha o'qituvchining, psixologik tayyorgarligi, uning nazariy bilimlarini amalda kullay olishi maxoratiga boglik. Shuning uchun xam o'qituvchining pedagogik faoliyat tomonidan kuyiladigan masalalarni xal etishda, psixologiya ayniksa muxim rol uynaydi. Bu qism buyicha referat ishi yozishning asosiy maqsadi xam o'qituvchi oldida turgan kundalik amaliy vazifalarni psixologiyaning nazariy koidalari bilan boglangan xolda xal qilishga da'vat etishdan, u bilan birga u yoki bu xildagi pedagogik ta'sirning maqsadga muvofik olib borilishiga yordam berishdan iborat, vazifalar psixologiya kursining asosiy mavzulari buyicha ishlab chikilgan bulib O'quvchi va o'qituvchi faoliyatining psixologik xususiyatlarini ochib berishga karatilgan.

Xar bir mavzu buyicha materialni yaxshirok ishlab chiqishga yordam beradigan va kishini kiziktiruvchi psixologik konuniyatlarni ochib berish imkoniyatini yaratadigan savollar tavsiya etiladi. Shuni xam esda tutish lozimki, yangi savollar kiritilgan bulishi yoki savollarning izchilligi o'zgartirilgan bulishi xam mumkin.

Xar bir mavzuga asosan «Xalk ta'limi», «Sogлом avlod uchun» oynomalari va tuplamlarida nashr etilgan psixologiyaga oid masalalar tavsiya etiladi, ammo ba'zi xollarda zarur bulib kolgan takdirda mazkur ishimizning I-qismida berilgan adabiyotlardan foydalanishimiz xam mumkin.

Bularning barchasi talaba ilmiy saviyasining kengayishiga, uning nazariy tomonidan tayyogarligi, mustakil fikrlashining shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

Referat to'zish uchun psixologiyadan yozilgan ayrim asarlar va makolalar beriladi. Adabiyotlarni tanlashda va ularni tartibga solishda Hozirgi zamon psixologiyasi fani tarakkiyotining muxim tomonlarini kamrab olishga shu bilan birga respublikamizda nashr etilgan psixologik adabiyotlarni urganib chiqishga xarakat qilinadi.

Psixologiya fanining umumiyligi masalalari buyicha berilgan adabiyotlar bilan bir katorda turli fakultet talabalariga o'z kasblariga karab adabiyotlar ruyxati taqdim etiladi. Jumladan til va adabiyot fakulteti talabalar uchun tilni o'zlashtirishning psixologik asoslari, adabiyot ijodiyot psixologiyasi, yakkol obruzli tafakkurning tarakkiy etishi buyicha adabiyotlar ruyxati, badiiy-grafika fakultetining talabalar uchun tasviriy san'at psixologiyasi buyicha adabiyotlar ruyxati difektologiya fakulteti talabalar uchun anomal bolalar psixologiyasi buyicha adabiyotlar ruyxati taqdim etiladi.

Tavsiya etilgan adabiyotlarning barchasi xam mazmun va xajm jixatdan bir xil axamiyatga ega emas, shuning uchun xam bu adabiyotlardagi fakt, ta'rif va konun koidalarnigina so'zma-so'z anik kuchirib olish lozim. Ba'zan namoyish qilish uchun 1-2-misolni yozib olish ayniksa foydalidir.

Urganilayotgan asarda tushunib bulmaydigan joylari xam uchrashi mumkin. Bunday xollarda matnni 2 marta ukish, ba'zan esa uning davomidagi jumlalarni ukib chiqish tavsiya etiladi. Chunki davomidagi jumlalar o'zidan oldingi jumlalarni tushunishga yordam beradi. Agar ana shunda xam tushunish kiyin bulsa o'qituvchiga murojaat qilish kerak.

Adabiyotlar manbai bilan tanishib chikkandan keyingina referat to'ziladi. Referat tayyorlashda ukib chikilgan asarlarning mazmunini shunchaki kurukkina

kilib yozib berish mumkin emas. Referatda asarning eng muxim nazorat konun – koidalarini anik ko’rsatib berish bunda asosiy dikkat e’tiborni asarning fakat natijasigagina karatib kolmay balki u yoki bu xoldagi masalani urganishda kullanilgan metodikasiga xam aloxida e’tibor bergan xolda ish olib borish zarur. Ilmiy adabiyotlarni ukiganda tankidiy yondoshish lozim. Shuning uchun xam fakat materialning asosiy mazmunini o’zlashtirib olishgagina emas, balki isbotlash usullariga xam aynan shu bir masala tugrisidagi turlicha nuktai nazarlarning xususiyatlarini ohib berishga referat to’zayotgan ishning axamiyatini amaliy va nazariy tomondan baxolashga intilish zarur. Agar talaba o’zi to’zgan referatida muallifning goyalari va xulosalariga nisbatan o’zining shaxsiy munosabatlari va o’z ko’z karashlarini yoritib bulsa, juda yaxshi buladi.

Talabalarimizni maktablardagi O’quvchilar bilan ish olib borishga, O’quvchilarning psixik xususiyatlarini urganish buyicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishga urgatmogimiz zarur.

Talabalarning ish faoliyatini ana shu tarika yunaltirib borish ularni amaliy mashgulotlar, seminar mashgulotlari, nazorat ishlari va kurs ishlari xamda diplom ishlari singari mustakil ish turlari ustida kunt bilan ishlashga ragbatlantiradi. Oliy ukuv yurtlarining sirtki bulimlarida ukuv ishlarining asosiy qismi sessiyalar oraligida davrlarga rejalashtiriladi. Bu ishlarning barchasi institut kafedralarining ko’rsatmalari asosida talaba tomonidan mustakil ravishda bajariladi. Psixologiya fanidan yoziladigan nazorat ishlari kurslarda bulib, tayyor ish o’qituvchi tomonidan ma’kullangandan keyin talaba imtixonga kuyiladi.

Talabalarga beriladigan vazifalarni tanlashda, bu vazifalarning xarakterini, xajmini va murakkablik darajasini belgilashda talabalarning yosh fiziologiyasi va maktab gigienasi kursini urganganliklari, umumi psixologiya, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlaridan muxozara kursini to’la eshitganliklari, maxsus psixologik adabiyotlarini urganish buyicha va laboratoriya, xamda amaliy mashgulotlarda psixologik tadqiqotlar olib borishda ba’zi bilim va malakalarni egallaganliklari nazarda tutiladi.

Bu esa nazorat ishini o’qituvchilar tomonidan baxolanishida e’tiborga olinadi. Psixologiyadan nazorat ishi mavzusini tanlashda maktabdagagi ta’lim tarbiya ishlari kuprok nazarda tutiladi. Tavsiya etiladigan vazifalar turt qismdan iborat bulib, talaba anashu qismlardan birini o’zi tanlab olishi mumkin. Nazorat ishi uchun tavsiya etiladigan vazifalar kuyidagilardir.

1. Ilmiy psixologik adabiyotlardan referatlar yozish.
2. Maktabda psixologik pedagogik tadqiqot ishlarini olib borish.
3. Psixologiyaning nazariy konun koidalarini taxlil kilgan xolda uni maktabdagagi ta’lim-tarbiya ishlariga tadbik etish.
4. Maktabning O’quvchilari va ota-onalari urtasida psixologik bilimlarni targib etish.
5. Ma’ro’za va munozaralar tayyorlab ularni ukib eshittirish.

Tavsiya etilayotgan vazifalar turlicha bulishiga karamay maktabda olib boriladigan amaldagi ishlar bilan metodik ko’rsatmalar berib ishni bajarishning metodikasi xam beriladi. Talaba nazorat ishining mavzusini tanlashda o’qituvchi bilan maslaxatlashib olsa yanada yaxshirok buladi. Psixologiyada nazorat ishining

to'zilishi uning xarakteriga boglik. Referat shaklida yozilgan nazorat ishi odatda qismlarga ajratib beriladi. «Asosiy qism», «Ishning maqsadi», «Xulosa va muloxazalar».

Psixologik pedagogik xarakterga ega bo'lgan nazorat ishlarida qisqacha nazariy kirish qismi va metodik tavsilot berish, undan keyin esa asosiy fikr bayon etilib taxlil qilish va xulosa talab qilinadi. Psixologik nazariyani ta'lim-tarbiya ishlarida qo'llash vazifasi bajarilganda foydalanilgan adabiyot manbalari, kundalik daftarga ko'rsatilgan ko'zatish materiallari, qarorda ta'kidlangan asosiy fikrlar to'la berilishi zarurdir. O'quvchilar va ota-onalarga psixologiyadan ma'ro'za yoki munozaralar ukigan munozarasi yoki ma'ro'zasining batafsil matni uning rejasি bilan birgalikda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati ko'rsatib, munozara yoki ma'ro'za o'tkazilganligi haqidagi tasdiqlangan xujjatlar taqdim etilishi lozim.

Mavzu yo'zasidan savol va topshiriklар:

1. Nazorat ishlariga kuyiladigan asosiy talablarni aytib bering?
2. Ilmiy psixologik adabiyotlardan refeat to'zishdan asosiy maksad nima?
3. Psixologiyadan olgan nazariy bilimlaringizni ta'lim-tarbiya ishida qanday kullay olasiz? Misollar keltiring?
4. «Xalk ta'limi» ro'znomasi «Tafakkur» va «Soglom avlod uchun» oynomalaridan mavzuga oid makolalardan konspekt yozing.

9- mavzu: TA'LIMNI BOSHQARISH TIZIMI R E J A:

1. Reyting tizimining moxiyati va asosiy ko`rsatgichlari.
2. Malakali mutaxassislar tayyorlashda pedagogik amaliyotning urni.
3. Psixologiyadan yoziladigan kurs ishlarining maksad va vazifalari.
4. Psixologiyadan yoziladigan bitiruv malakaviy ishlari.
5. Bitiruv malakaviy ishga qo`yiladigan talablar

Tayanch tushunchalar:

Kurs ishlari, nazariy va eksperimental kurs ishlari, bitiruv malakaviy ishlari, ilmiy tadqiqot ishlari, reyting, baxolash boshqichlari, nazorat shakllari, yozma ish, psixologik tayyogarlik, pedagogik ta'sir, o'kuvchi shaxsiga psixologik-pedagogik tavsifnoma, darsning psixologik taxlili, sinf jamoasiga pedagogik psixologik tavsifnoma.

Oliy ukuv yurtlaridagi ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish: talabalarning yukori darajadagi bilimlariga ega bulishi xamda o'zlashtirishning muvafakiyatli bulishini ta'minlaydigan tadbirlardan biri talabalar bilimini nazorat qilish va baxolashning reyting tizimini joriy qilishdir.

Hozirgi kunda oliy ukuv yurtlaridagi ta'lim olish jarayonida talabalarning o'zlatirishi va bilimini nazorat qilish xamda baxolashning reyting tizimini joriy qilishning asosiy maksadi talabalarning tanlagan soxalari, shuningdek ijtimoiy va psixologik-pedagogik ukuv fanlaridan xar taraflama mukammal, chukur bilimlarga ega bulishlariga erishish va ularni mustakil, ijodiy fikrlay olish kobiliyatlarini yanada tarakkiy ettirishdan iboratdir. Talabalarning o'zlashtirish va bilimini nazorat

qilishning reyting tizimini joriy qilishning axamiyati yana shundan iboratki, u ijobi motivatsiya xosil kiladi, ukishda muvafakiyatga erishish uchun intilish, ukuv faoliyat bilan muntazam shugullanib borishga moyillik kelib chikadi.

Bularga erishishning eng kulay yullaridan biri ukuv jarayoniga talabalar o'zlashtirishini nazorat qilish va baxolashning reyting sistemasini joriy kilinishidir. «Reyting» inglizcha so'z bulib, «baxo», individual koifitsient degan ma'noni anglatadi. Shu paytgacha amaliy faoliyatda kuprok «siyosiy arboblar reytingi» tushunchasini uchratganmiz. Lekin oxirgi paytlarda turli oliy ukuv yurtlarida talabalar o'zlashtirishini nazorat qilishning reyting sistemasi joriy kilinishi bilan «talabalar reytingi» termini xam kundalik xayotimizga keng mikyosda kirib kelmokda.

Talab bilimini reyting sistemasi buyicha baxolash goyasi talabalar ukuv ishlarining barcha turlarini baxolash asosida tuplagan ballar mikdori esa xar bir talabaning ukishda erishgan yutuk va muvofakiyatlarini yakkol takoslash imkonini beradi. O'z natijalarini boshka talabalar kulga kiritgan ballar mikdori bilan doimiy solishtirib borish orkali talaba o'z tayyorgarlik darajasini ko'zatib boradi. Kerak bulgan takdirda o'zlashtirish tezligini oshirish uchun imkon yaratadi.

Bunda ukuv guruxidagi xar bir talaba o'zining ukishdagisi yutuklariga muvofik keladigan tartib rakamini oladi. Talabalarning jami reytingi o'zlashtirish taxtasi yoki ekraniga yozib kuyiladi. Bu esa talabalarga o'zlashtirish natijalarini takkoslab borish imkonini yaratib, ular faolligini oshiradi, bir-biridan usib borish imkoniyatini yaratadi. Bir-biridan usib ketishi uchun xarakat qilishga undaydi, ukish faoliyatida yukori natjalarga erishishi orkali o'z xurmati va kadrini oshirishga yordam beradi.

Hozirgi davrda talabalar o'zlashtirishi lozim bulgan ilmiy axborot okimi tuxtovsiz usib bormokda. Shu munosabat bilan ukuv jarayonini tashkil qilishni takomillashtirishning shunday yullarini izlab topish talab kilinadiki, bunda talaba o'z kobiliyat va imkoniyatlarini maksimal darajada rivojlantirishga intilsin xamda bilimlarini mustaxkam egallash uchun bor kuchlarini ishga solsin.

Talabalarni o'zlashtirishini baxolashning reyting sistemasini qo'llash-tajribalarning kursatishicha, bunda mutaxassislar tayyorlashda ancha yukori darajaga erishish mumkin. Shuningdek o'zlashtirishni nazorat qilishning yangi turlarini joriy etishni dolzarblii mutaxassislar tayyorlashning kup boshqichli sistemasiga utishi bilan xam boglangan (bakalavr, magistr). Ta'limning bir boshqichidan ikkinchisiga o'tkazish attestatsiya yoki konkurs asosida amalga oshiriladi. Talabalarning ukuv reytinggi attestatsiya sistemasida ob'ektiv kursatkich bulib xizmat qilishi mumkin. Reyting sistemasini qo'llash tajribalarning kursatishicha bu sistema talabalar ukuv faoliyatni sifatiga ijobiyligi ta'sir kursatadi.

Bunda xal kiluvchi omillar sifatida kuyidagilarni kursatib utish mumkin.

- semestr davomida talabalarni ishlab borishga undash;
- talabalarni ukuv materiali ustida mustakil ishlash rolini kutarish;
- ta'linda musobakalashi elementlarini kiritish;
- talabalarning ukishda muvoffakiyatlarga erishishga bulgan ijobiyligi mativatsiyalarni uygotish.

Nazorat qilishning reyting sistemasini kullash talabalar o'zlashtirishini baxolashda tasodifiy omillar rolini ancha pasaytiradi, chunki muayyan, ukuv fani

buyicha baxo talabalar tomonidan semestr yoki ukuv yili davomida tuplagan umumiylar mikdoriga karab aniklanadi.

Bilimlarni nazorat qilishning reyting sistemasi ukuv jarayonini axborot jixatdan ta'minlanishiga yukori talablar kuyadi. Talabalar bilan muallimlar urtasidagi o'zaro munosabatlar xakikiy xamkorlik asosida kuriladi.

Talabalar o'zlashtirishi va bilimlarini baxolashning reyting sistemasi joriy kilinishining asosiy maksadi – oliy ukuv yurtlaridagi ta'lim olish jarayonida talabalarning tanlagan soxalari xamda ijtimoiy psixologik pedagogik ukuv fanlaridan chukur, xar taraflama mukammal bilimlarga ega bulishini tashkil qilish va ularning ijodiy fikrlash kobiliyatlarini rivojlantirishdir.

Universitet va pedagogika instituti talabalarini pedagogik faoliyatiga tayyorlashda va ularni yukori malakali mutaxassis kilib tarbiyalashda maktablarda olib boriladigan pedagogik amaliyotning roli nixoyatda muximdir.

Pedagogik amaliyot psixologik jixatdan talabaning nazariy tayyorgarligini tuldiradi va boyitadi, olgan bilimlarini mustaxkamlash va chukurlashtirishga, amaliy vazifalarni xal qilish uchun urganilgan fanning nazariy koidalardan foydalanishga imkon yaratadi. Shuning uchun xam pedagogik amaliyot talabalarni kelgusi faoliyatga tayyorlash vositasidan biri xisoblanadi. Chunki, talaba pedagogik nuktai nazardan Umumiy, Yosh va pedagogik psixologiyadan olgan nazariy bilimlarini amaliyot jarayonida amalda tatbik qilish imkoniyatiga ega buladi. Amaliyotchi talaba o'qituvchi sifatida O'quvchilarning yoshlik va individual psixologik xususiyatlarini bilibgina kolmay balki ta'lim, tarbiya va o'qituvchi psixologiyasidan olgan nazariy bilimlardan ta'lim – tarbiya jarayonida foydalanishga urganadi. Psixologik ma'lumotlarga suyanib ayrim O'quvchilarga va sinf jamoasiga tavsifnomा to'zish, darslarni psixologik tomondan taxlil qilish tadbirlarni o'tkazish va uning mazmuni, to'zilishi, tarbiyaviy axamiyatini psixologik jixatdan baxolaydilar. Ular sinf raxbari sifatida o'z tarbiyaviy ishlarini tashkil qilish, o'z sinfi O'quvchilarining xususiyatlarini urganish, bir kancha tadbirlarni mustakil tayyorlash kabi amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Shuningdek, talabalar o'zlarining pedagogik kobiliyatlarini sinab kuradilar va yoshlarga bilim, kunikma va malakalarni singdirishda, ularning akliy faoliyatlarini rivojlantirishda qanday kobiliyatlarini tarkib toptirish lozimligini bilib oladilar. Pedagogik amaliyot jarayonida talaba o'qituvchigina emas, u psixolog ekanligini yodda tutmogi lozim. Chunki yaxshi o'qituvchi bulish uchun yaxshi psixolog xam bulishi lozim.

O'quvchilarning xususiyatlarini bilish, ularning qalbiga yo'l topa olish, mulokotda bulish malakasini egallah, ularni faol va mustakil fikrlashga urgatish kobiliyatlarini shakllantirish psixologiyani bilishni talab kiladi va talabalar bu urinda psixologiyadan olgan bilimlar tizimiga suyanadilar. Pedagogik amaliyot faol professional xarakatlarni amalgaga oshirish va professional o'qituvchining dastlabki tajribalari bilan kurollantirish uchun kulay shart-sharoit yaratadi. Pedagogik amaliyot davomida III kurs (besh yillik kurslarda IV kurs) talabalar O'quvchi shaxsiga psixologik – pedagogik tavsifnomা yozadilar. IV-kurs (5 yillik kurslarda V kurs) talabalar esa:

1. Sinf jamoasiga pedagogik – psixologik tavsifnomা
2. Bir soatlik darsning pedagogik – psixologik taxlili

O`kuvchi xakida chukurrok bilimga ega bulish uchun sinf raxbari va boshka ukituvchilar bilan suxbatlashadilar. Talaba O`quvchining jamoasiga, o`z-o`ziga, urtoklariga, mакtab, sinf raxbari va boshka ukituvchilarga bulgan munosabatlarini, mexnatga, ukishga bulgan munosabatlarini urganadi. Ayniksa mexnatga bulgan ishtiyoki, unga bulgan (ongli va ijobiy) munosabatlarini ko`zatadi.

O`quvchining ukishga munosabatini urganish aloxida axamiyatga ega. Bunda talaba O`quvchining o`zlashtirishi, bilimlar darajasi, darsga kizikishi, kobiliyati: dikkat, idrok, xotira, tafakkur xususiyatlarini, ularning faollik darajasini, psixik jarayonlarining rivojlanishiga ta'sir kursatuvchi omillarni, ukish malakalarini, o`zi dars bergen vaktda, shu sinfga dars ko`zatishga kirganda urgana boradi. Bu urinda xar bir jarayonning shu O`quvchiga xos bulgan xususiyatlarini aniklash muximdir. Masalan: O`quvchi o`zi ukigan materialini yaxshi esda saklashi (kuruv xotirasi) yoki dikkati bekaror bulishi, tez fikr yuritishi yoki mustakil fikrlay olmasligi mumkin.

Bunday xususiyatlar O`quvchilar e'tikodi, ideallari, orzusi, dunyokarashiga xos bulgan xususiyatlarini O`quvchilar bilan suxbatda bulish orkali bilib olinadi. Uning xarakter xislatlari va temperament tiplariga xos bulgan ma'lumotlarni taxlil kilib, uning individual psixologik xususiyatlarini ochib beradi.

O`quvchining xarakter xislatlari va temperamentti tiplarini aniklashda unga xos bulgan xar bir xususiyatni ko`zatib, uni yozib borish lozim.

Chunki xarakter xislatlari irodaga, xissiyotga va akl-farosatga (intellektual) xos bulgan xislatlarga bulinadi va ularni ijobiy va salbiy xususiyatlari u yoki bu O`quvchida, albatta, mavjud buladi. Talaba bu xislatlarni O`quvchini doimiy ravishda ko`zatish orkaligina bilib olishi mumkin. Ba'zi bir talabalar men ko`zatgan O`quvchining temperament xolerik yoki melanxolik – deb xulosa chiqaradilar.

Bu albatta, tugri emas chunki u shu O`quvchiga xos bulgan xamma xususiyatlarni ochib yozmaydi. Agar O`quvchining temperamenti xususiyatlari tula kursatilsa keyingina biz u kaysi temperament turiga mansubligini yoki kaysi xarakter xislatga moyilligini aniklay olamiz. O`quvchining o`ziga xos xususiyatlarini urganish fakat dars jarayonidagina olib borilmay, balki u darslarni ko`zatish, tarbiyaviy ishlar protsessida, bolani uynayotgan va mexnat kilayotgan vaktida, xatto tanaffus vaktida, ya'ni kundalik ish protsessida buladi.

Ko`zatish va suxbatdan aniklangan faktlar «psixologik ko`zatishlar kundaligi» daftariga sistemali yozib boriladi.

Kundalikda tuplangan ma'lumotlar talabaning O`quvchiga psixologik – pedagogik tavsifnomasi yozishi uchun asos buladi. Talaba O`quvchiga yozilgan tavsifnomani «psixologik ko`zatish daftari» bilan birga psixologiya ukituvchisiga topshiradi. Ukituvchi avval talabaning psixologik ma'lumotlarini kurib chikadi va bu ma'lumotlarni tavsifnomada bayon etilganligiga karab uni baxolaydi.

Ukish O`quvchi mexnatining asosiy turi xisoblanadi. Unga sinf jamoasining munosabatini aniklash: ya'ni O`quvchilar bilim egallahdagi burchlarini qanday anglaydilar, kaysi fanlarni ukishga kizikishlarini bilish zarur. Chunki ularning fanlarni egallahsga bulgan kizikishlari ta'limni muvoffakiyatli, chukur o`zlashtirish imkonini beradi.

O`quvchilarning kaysi fan tugaraklariga, konferentsiya va olimpiadalarga katnashishi xam ularning kizikishlaridan dalolat beradi.

Sinf jamoasini urganish bir O'quvchi shaxsini urganishga nisbatan murakkabdir. Chunki bunda amaliyotchi talaba sinfdagi xamma O'quvchilarning fakat kizikishi yoki fanni o'zlashtirishlarinigina emas, balki sinf jamoasi xarakterini, sinfdagi an'analarni, uning vazifalarini, sinf O'quvchilarining istikbollarini va ularning tarbiyaviy kiymatlarini aniklashi lozim.

Sinf jamoasini urganishda jamoa faoliyati mazmuni va shaklini psixologik nuktai nazardan chukur taxlil qilish, uning muxim tomonlarini va kamchiliklarini puxta asoslab berishga axamiyat berish kerak. Agar sinf faoliyati bilimlariga yoshlik va individual xususiyatlariga mosligi, chukur va puxta asoslanib berilmasa, unda taxlil ob'ektiv xarakterga ega bulmaydi.

Amaliyotchi talaba sinf jamoasini urganishda, albatta, shu jamoaning uyushkokligiga alovida axamiyat berishi lozim. Chunki sinf jamoasining uyushkokligi undagi guruxlarning uyushkokligini xam belgilaydi. Kimmatlri orientatsiyalarning birligi jamoa uyushkokligini kursatish bilan birga ularning fikrlarini, karashlarini xam birligini kursatadi. Shuningdek, jamoada uyushkoklik ruxini misollarda bayon qilish, jamoa a'zolari orasida fikrlarning birligi yoki turli – tumanligi, ularni kelishtirishga kobilligi, xarakatlarning anikligi va O'quvchilarning odilligi (urtoklarini ximoya qilishi, kasal urtogiga yordam berishi va x.k.) yoki kaxri kattikligi, kupollik, manfaatini ko'zlash kabilarni ko'zatish va ularni psixologik jixatdan asoslab berish talab kilinadi.

Amaliyotchi – talaba sinf O'quvchilar xakida umumiy ma'lumot, sinf faoliyatining mazmuni va xarakteri ya'nii ularni xamma fanlarni o'zlashtirishi, intizomi O'quvchilarning o'zaro munosabatlari, sinfdan tashkari olib briladigan ishlari, mexnatga munosabatlari, ular orasidagi faollar va ularning ish faoliyati, xarakteri kabilarni kundalik ish jarayonida muntazam urganadilar. Shuningdek amaliyotchi sinf O'quvchilarining siyosiy – goyaviy darajasi, etakchi O'quvchilarning o'z urtoklari orasida tutgan urni, uyushkokligi, tashabbusi, mustakilligi, jamoa orasidagi o'zaro munosabatlarini aniklash va ularni muxokama kilib borish kerak.

Amaliyotchi – talaba sinf raxbarining ish faoliyatini uning bilimi, madaniyati, kobiliyatini, munosabatlarini urganadi va undan o'ziga tegishli xulosa chiqaradi. Talaba ko'zatgan ma'lumotlarni «Psixologik kundalik » daftariga (3-sxema) yozib borishi talab etiladi. Chunki ularni yozib bormasa ma'lumotlar esdan chikadi va psixologik dalillarsiz jamoaga psixologik – pedagogik tavsifnomasi berish mumkin bulmaydi. (Sinf jamoasini psixologik – pedagogik uganish sxemasi – 3-sxema).

Sinf jamoasini urganish va unga psixologik – pedagogik tavsifnomasi to'zishning taxminiy sxemasini talabalar «Pedagogik amaliyot buyicha talabalarga amaliy yordam» (Fargona 1993 yil) kitobidan kuchirib oladilar.

Darsni psixologik – pedagogik taxlil qilish uchun talaba avvalo shu darsni ko'zatishi lozim. Ko'zatishdan aniklangan ma'lumotlar va dalillarni kuyidagi sxemaga yozib borilsa, darsni taxlil etishda talaba kiynalmaydi.

Sana, Sinf. Ukituvchining Ismi-sharifi, fan.	Darsning yutuklari	Darsning kamchiliklari	Fikr va takliflar
--	-----------------------	---------------------------	----------------------

Darsni taxlil qilishda darsning maksadi, vazifasi, tipi, boshkarish masalasi buyicha:

Uni psixologik jixatdan maksadga muvofikligiga e'tibor beriladi. (kirish, ma'lumotlar bilan tanitirish, yangi bilimlarni o'zlashtirish, malakalarini shakllantirish, takrorlash va x.k.) ikkinchidan, ukuv informatsiyalarini tanlash, uchinchidan dars utish uslublari bilan aniklanadi. Darsga baxo berish xam darsning to'zilishi va tiplari orkali belgilanadi. .

Tafakkur jarayoni ta'limni o'zlashtirishda xamma psixik jarayonlar kabi muximdir. Bunda O'quvchi ukituvchi tomonidan berilayotgan bilimlarni o'ziga xos xususiyatlarini, ular orasidagi boglanish va knuniyatlarini umumlashtirib o'zlashtiradi. Bu bilimlar ayrim tushunchalar sifatida emas, balki tushunchalar sistemasiga (tizimiga), aylanadi. Shuning uchun ukituvchi bu tushunchalarni qanday bayon etdi, O'quvchilarda qanday xukmlar vujudga keltira olganini aniklash lozim. Ayniksa, tushunchalar orasidagi sababiy boglanishlar qanday bayon kilinganligi axamiyatlidir. Shuningdek, ukituvchi u yoki bu xukm va tushunchalarni qanday yullar bilan (induktiv, deduktiv) shakllantira olganligini alovida e'tiborga olish lozim. Dars jarayonida mustakil, faol va ijodiy tafakkurni rivojlantirish, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish va bolalarning fikr yuritish jarayonlarini (analiz, sintez, abstraktsiya va x.k.) faollashtirish qanday yullar bilan amalga oshirilganligini aniklash maksadga muvofikdir. Dars jarayonida ukituvchining O'quvchilar bilish faoliyatini faollashtirish usullarini taxlil qilishda bolalarning individual xususiyatlarini xisobga olishi, individual kunikma va malakalarini paydo bulishi (fikrlash orkali yoki munosabat usullari va uning samaradorligi) ni aniklab olishi kerak.

Shuningdek darsni taxlil qilishda ukituvchi utgan mavzuni O'quvchilar qanday o'zlashtirgani xakidagi informatsiyani qanday kilib bilib olgani, savollarning bolani fikr yuritishga majbur qilish ruxida to'zganligi va javob berishga xamma O'quvchilarni jalg kila olganini alovida ta'kidlash zarur.

Darsni baxolashda uning maksad va vazifalarini qanday amalga oshirilgani, unda qanday yutuk va muvoffakiyatga erishgani, darsda qanday kamchiliklarga yul kuyilganligi va uning ob'ektiv, sub'ektiv sabablari va nixoyat, taxlil kiluvchi shaxslarning fikr-muloxaza va takliflari, ularning kanchalik muximligi xisobga olinadi va dars baxolanadi.

Tarbiyaviy tadbirlarni psixologik asoslab berish. Amaliyotchi talaba tomonidan tayyorlanadigan va o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarni amalga oshirishdan maksad bulgusi pedagog – tarbiyachilarning tarbiyaviy ish jarayonini olib borishga urgatishdir. Ular o'zları biriktirib kuyilgan sinf jamoasini urganadilar, sinf raxbari va yoshlar tashkilotining ish tizimi bilan tanishadilar, sinf raxbari bilan xamkorlikda kelgusi davr uchun O'quvchilar oldiga kuyiladigan asosiy tarbiyaviy vazifalarni belgilaydilar, belgilangan tarbiyaviy vazifalarni xal qilish uchun tarbiyaviy ishlarni rejasini to'zadilar.

Bulgusi ukituvchilarning kasbiy tayyorgarlik tizimida psixologiyadan kurs ishlari yozish muxim urin tutadi. Kurs ishlari yozishning asosiy maksadi

talabalarning psixologiyaga doir ilmiy adabiyotlar, risola va makolalar (ro'znama va oynomalarda chop etilgan makolalar xam kiradi) bilan ishslash malakasini takomillashtirish xamda ilmiy tadqiqot faoliyati bilan boglik dastlabki kunikma va malakalarni xosil qilishdir. O'zbekiston Respublikasi mustakillikni kulga kiitgan xozirgi vaktda yukori malakali ukituvchilarni tayyorlash Respublikamiz oliy maktablari oldida turgan muxim vazifalardan biridir. Bu vazifani muvaffakiyatli xal etilishi uchun talabalarimizni maktabdagi O'quvchilar bilan ish olib borishga, O'quvchilarning psixik xususiyatlarini urganish buyicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishga urgatmogimiz zarur. Talabalarning ish faoliyatini ana shu tarika yunaltirib borish ularni amaliy mashgulotlar, laboratoriya mashgulotlari, nazorat ishlari, kurs ishlari xamda bitiruv malakaviy ishlari singari mustakil ish turlari ustida kunt bilan ishslashga ragbatlantiradi.

Kurs ishlari asosan ikki xil bulib. Ular:

- 1) Nazariy kurs ishlari
- 2) Eksperimental kurs ishlaridir.

Nazariy kurs ishlari yozishda odatda psixologiyaga oid ilmiy adabiyotlarni (manbalarni) mavzuga karab taxlil qilish nazarda tutiladi. Nazariy kurs ilari yozish kuyidagi ish boshqichlarida olib boriladi:

- a) mavzu tanlash
- b) adabiyotlar tanlash (manbalar tanlash)
- v) reja to'zish
- g) mazmunni bayon etish
- d) xulosa chiqarish

Kurs ishlari mavzulari psixologiya kafedrasi ukituvchilari tomonidan to'ziladi, kafedra yigilishida muxokama kilinib, tasdiklangandan sung talabalar e'tiboriga xavola etiladi. Kurs ishlari mavzularini talabalar ixtiyoriy ravishda tanlab oladilar. Kafedra tomonidan talabalarga kurs ishi yozishlarida uslubiy va nazariy jixatdan yordam berish uchun ilmiy raxbar tayinlanadi.

Ilmiy raxbar talabaga reja to'zishda, mazmunni bayon etishda va zaruriy ilmiy psixologik xulosalar chiqarishda, nazariy xulosalarni amaliyot bilan boglab olishga yordam beradi. Kurs ishi yozayotgan talabalarga doimiy ravishda amaliy yordam kursatib boriladi. Ilmiy raxbar tomonidan individual suxbat va konsultatsiyalar uyushtiriladi.

Eksperimental kurs ishlarida esa ilmiy adabiyotlar taxliliga kushimcha tarzda O'quvchilar bilan tajriba o'tkaziladi (ular ko'zatiladi, tadqiqot o'tkaziladi, anketa tarqatiladi, suxbat o'tkaziladi va x.k.)

Eksperimental kurs ishlari kuyidagi tartibda bajariladi:

- a) Tanlangan tadqiqot mavzusini nazariy jixatdan ishlab chiqish (adabiyotlarni tanlash, ularni taxlil qilish, tadqiqot muammosini ajratib kursatish).
- b) Tadqiqotda ishlatiladigan metodikalarni (uslublarni) tanlash.
- v) O'quvchilar bilan tajriba olib borish.
- g) Olingan natijalarni statistik ishlab chiqish va psixologik talqin qilish.
- d) Xulosalar chiqarish.

Mavzu yo'zasidan savol va topshiriqlar:

1. Kurs ishi va Bitiruv malakaviy ishlari yozilishiga qanday talablar kuyiladi?
2. Kurs ishining to'zilishi qanday?
3. Bitiruv malakaviy ishining yozilish boshqichlarini aytib bering?
4. Yozma ish usulini tadbik etish buyicha Namunaviy Nizom bilan tanishib chiqing.
5. Pedagogik amaliyotning axamiyatini o'z fikringiz bilan tushuntirib, asoslab bering.
6. Ukvuchi va sinf jamoasini urganishda kaysi psixologik metodlarni kulagan ma'kul?
7. Dars o'tish jarayonida o'kuvchilarning yosh xususiyatlari xamda individual xususiyatlarini xisobga olishdan maksad nima?

Foydalanilgan asosiy adabiyotlar:

1. G`oziev E. Umumiy psixologiya. Toshkent, 2002.
2. G`oziev E. Psixologiya. Toshkent, «O'qituvchi», 2003.
3. G`oziev E. Psixologiya o`qitish metodikasi. Toshkent, O`zMU, 2002.
4. G`oziev E., O`tanov B. Hamkorlik psixologiyasi. Toshkent, ToshDU, 1992.
5. G`oziev E. Oliy maktab psixologiyasi. Toshkent, O`zMU, 2004.
6. Панибратцева З.М. Методика преподавания психологии. Москва, Просвещение, 1971.
7. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. Toshkent, ToshDPU, 2002.
8. Karimova V. Psixologiya. Toshkent, 2000.
9. S.Ogaev. Ta'lif texnologiyasi. Xalk ta'limi 2000 yil. № 3.
10. B.X. Bobomirzaev Pedagogik amaliyot psixologik muammo sifatida. Tokent – 1997 y.

Интернет манбалари:

1. http: www.lib.psixology.msu.ru
2. http: www.lib.psixology.ru
3. http: www.lib.psixology.rin.ru
4. http: www.lib.psixology.narod.ru